O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI

MAKTABGACHA VA MAKTAB TA’LIMI VAZIRLIGI

ANDIJON VILOYATI

PEDAGOGIK MAHORAT MARKAZI

“PEDAGOGIKA VA PSIXOLOGIYA, TA’LIM TEXNOLOGIYALARI”

kafedrasi

2.2.“MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALAR PSIXOLOGIYASI” MODULI BO‘YICHA

MA’RUZA MATNI

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI

MAKTABGACHA VA MAKTAB TA’LIMI VAZIRLIGI

ANDIJON VILOYATI PEDAGOGIK MAHORAT MARKAZI

“TASDIQLAYMAN”
Pedagogik mahorat markazi direktori
_____ T.T.Turg‘unov
“_6_” ___01___ 2025-yil

2.2.“MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALAR PSIXOLOGIYASI” MODULI BO‘YICHA

O‘QUV-USLUBIY MAJMUA

“K E L I SH I L D I”
Akademik faoliyat bo‘yicha
direktor o‘rinbosari
_____ O‘. Qurbonov

2025-yil “_6_” __01__

“K I R I T D I”
Kafedra mudiri
_____ p.f.f.d (PhD)., dotsent Q.Azizova

2025-yil “_3_” __01__

ANDIJON – 2025

Tuzuvchilar: R. Latibjonov, Pedagogika va psixologiya, ta’lim texnologiyalari kafedrasi katta o‘qituvchisi

M.Soliyev, Pedagogika va psixologiya, ta’lim texnologiyalari kafedrasi o‘qituvchisi

Taqrizchi: Q.M. Azizova, Pedagogika va psixologiya, ta’lim texnologiyalari kafedrasi mudiri p.f.f.d. (PhD)., dotsent

Ushbu O‘quv-uslubiy majmua Andijon viloyati pedagogik mahorat markazi Ilmiy metodik kengashi qarori bilan ma’qullangan va tasdiqlangan. (2025 yil _-yanvardagi 1-son bayonnoma)

KIRISH

Ushbu o‘quv dasturi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 26-maydagi “Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi hamda uning tizimidagi tashkilotlar faoliyatini samarali tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF–79-son Farmoni va 2024-yil 21-iyundagi “Maktabgacha va maktab ta’limi tashkilotlari xodimlarini uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimini takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 231-son qarori hamda maktabgacha ta’lim tashkilotlari pedagog va mutaxassis kadrlarini uzluksiz malakasini oshirishning ilg‘or va shaffof tashkiliy-huquqiy mexanizmlarini tatbiq etish, maktabgacha ta’lim tizimida kadrlar siyosatini shakllantirishning zamonaviy tamoyillarini joriy etish bo‘yicha belgilangan ustuvor vazifalar mazmunidan kelib chiqqan holda tuzilgan bo‘lib, zamonaviy talablar asosida maktabgacha ta’lim tashkilotlari pedagog xodimlarining kasbiy bilim, ko‘nikma, malakalarini rivojlantirish, ularning kasbiy kompetentligini muntazam oshirishni nazarda tutadi.

Dastur mazmuni O‘zbekiston Respublikasining ta’lim sohasidagi davlat siyosatini amalga oshirish, maktabgacha ta’lim tizimini rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlari hamda maktabgacha ta’lim sifatini yaxshilashda maktabgacha ta’lim tashkilotlari pedagoglarining pedagogik etika va muloqot madaniyati, maktabgacha ta’limdagi islohotlar va sohaga doir me’yoriy-huquqiy hujjatlar mazmuni, shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim tamoyillari, maktabgacha ta’lim tashkilotlarida ma’naviy tarbiyani amalga oshirish, ma’naviy-ma’rifiy tadbirlarni o‘tkazish, inklyuziv ta’limni tashkil etish, tarbiyalanuvchilarning hayoti muhofazasi hamda ularni sog‘lom ovqatlantirishni tashkil etish bo‘yicha tegishli yangi bilim, ko‘nikma, malakalarni shakllantirish va umumiy kasbiy kompetentlikka ega bo‘lishga yo‘naltirilgan.

O‘quv modullarining mazkur dastur doirasida taqdim etilayotgan mazmuni maktabgacha ta’lim tashkilotlari pedagog kadrlarining kasbiy rivojlanishini, o‘z kasbiy faoliyatiga doir zamonaviy bilim va innovatsiyalar, ilg‘or xorijiy tajribalardan samarali foydalanish hamda texnologiyalarni o‘quv jarayoniga keng tatbiq etish darajasini oshirish, shuningdek, maktabgacha ta’lim tashkilotlari pedagog xodimlarini tayyorlash va malakasini oshirish mazmuni, sifati va ularning tayyorgarligiga qo‘yiladigan umumiy malaka talablari asosida ularning uzluksiz kasbiy rivojlanishini nazarda tutadi.

Maktabgacha ta’lim tashkilotlari malaka oshirish kursining barcha yo‘nalishlari uchun umumiy bo‘lgan ***invariant o‘quv dasturi***, ular egallashi zarur bo‘lgan umumiy kompetensiyalar bo‘yicha quyidagi blok va modullar mazmunini o‘z ichiga qamrab oladi:

II.Umumkasbiy ko‘nikmalarni rivojlantirish

2.2. Maktabgacha yoshdagi bolalar psixologiyasi

Maktabgacha ta’lim tashkilotlari rahbar, mutaxassis va pedagog xodimlari uzluksiz kasbiy rivojlantirish (*malaka oshirish*) kurslarining invariant o‘quv dasturi o‘quv modullarining mazmuni

Modul bo‘yicha soatlar taqsimoti

NAZARIY MASHG‘ULOTLAR MAZMUNI
II.UMUMKASBIY KO‘NIKMALARNI RIVOJLANTIRISH

2.2. Maktabgacha yoshdagi bolalar psixologiyasi modulining o‘quv-mavzu rejasi

T/r	O‘quv moduli mavzularining nomlari	Auditoriya mashg‘ulotlari (soatlarda)		
		Jami	Nazariy	Amaliy
1.	MTTda bolalarning rivojlanish asoslari	2	2	
	Jami	**2**	**2**	

2.2.“Maktabgacha yoshdagi bolalar psixologiyasi” modulining o‘quv dasturi

1-mavzu. MTTda bolalarning rivojlanish asoslari

(2 soat nazariy mashg‘ulot)

Bolalar rivojlanishining bosqichlari. Fiziologik va psixologik rivojlanishning o‘zaro bog‘liqligi.

1.3.“Ta’lim nazariyalari va ularning amaliyotga tatbiqi” modulining o‘quv-mavzu rejasi

T/r	O‘quv moduli mavzularining nomlari	Auditoriya mashg‘ulotlari (soatlarda)		
		Jami	Nazariy	Amaliy
1.	Bolaning ta’lim olishi va rivojlanishi haqidagi nazariyalar mazmun-mohiyati	2	2	
	Jami	**2**	**2**	

AMALIY MASHG‘ULOTLAR MAZMUNI

II.UMUMKASBIY KO‘NIKMALARNI RIVOJLANTIRISH

2.2.“Maktabgacha yoshdagi bolalar psixologiyasi” modulining o‘quv-mavzu rejasi

T/r	O‘quv moduli mavzularining nomlari	Auditoriya mashg‘ulotlari (soatlarda)		
		Jami	Nazariy	Amaliy
2.	Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida o‘yin va o‘rganish	2		2
	Jami	**2**		**2**

2.2.“Maktabgacha yoshdagi bolalar psixologiyasi” modulining o‘quv dasturi

2-mavzu. Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida o‘yin va o‘rganish (2 soat amaliy mashg‘ulot)

O‘yinning psixologik ahamiyati. Turli o‘yin turlari va ularning rivojlantiruvchi funksiyalari.

2.2.“Maktabgacha yoshdagi bolalar psixologiyasi” modulining o‘quv-mavzu rejasi

T/r	O‘quv moduli mavzularining nomlari	Auditoriya mashg‘ulotlari (soatlarda)		
		Jami	Nazariy	Amaliy
2.	Terapiyalar orqali bolalarni korreksiya qilish	2		2
	Jami	**2**		**2**

2.2.“Maktabgacha yoshdagi bolalar psixologiyasi” modulining o‘quv dasturi

3-mavzu. Terapiyalar orqali bolalarni korreksiya qilish (2 soat amaliy mashg‘ulot)

Art-terapiya orqali bolalarni ruhiyatini o‘rganish. Ertak terapiya orqali bolalarni o‘rganish.

1. “Kichik guruhlarda ishlash” metodi

Ta’lim oluvchilarni faollashtirish maqsadida ularni kichik guruhlarga ajratgan holda o‘quv materialini o‘rganish yoki berilgan topshiriqni bajarishga qaratilgan darsdagi ijodiy ish. Ushbu metod qo‘llanilganda ta’lim oluvchi kichik guruhlarda ishlab, darsda faol ishtirok etish huquqiga, boshlovchi rolida bo‘lishga, bir-biridan o‘rganishgava turli nuqtai- nazarlarni qadrlash imkoniga ega bo‘ladi.

“Kichik guruhlarda ishlash” metodi qo‘llanilganda ta’lim beruvchi boshqa interfaol metodlarga qaraganda vaqtni tejash imkoniyatiga ega bo‘ladi. Chunki ta’lim beruvchi bir vaqtning o‘zida barcha ta’lim oluvchilarni mavzuga jalb eta oladi va baholay oladi. Quyida “Kichik guruhlarda ishlash” metodining tuzilmasi keltirilgan.



Kichik guruhlarda ishlash” metodining tuzilmasi:

“Kichik guruhlardaishlash” metodining bosqichlari quyidagilardan iborat:

1.Faoliyat yo‘nalishi aniqlanadi. Mavzu bo‘yicha bir-biriga bog‘liq bo‘lgan masalalar

belgilanadi.

2. Kichik guruhlar belgilanadi. Ta’lim oluvchilar guruhlarga 3-6 kishidanbo‘linishlari mumkin.

«Kichik guruhlarda ishlash» metodining

Afzalliklari:	Kamchiliklari:
o‘qitish mazmunini yaxshi o‘zlashtirishga olib keladi;	ba’zi kichik guruhlarda kuchsiz ta’lim oluvchilar bo‘lganligi sababli kuchli ta’lim oluvchilarning ham past baho olish ehtimoli bor;
muloqotga kirishish ko‘nikmasi-ning takomillashishiga olib keladi;	barcha ta’lim oluvchilarni nazorat qilish imkoniyati past bo‘ladi;
vaqtni tejash imkoniyati mavjud;	guruhlararo o‘zaro salbiy raqobatlar paydo bo‘lib qolishi mumkin;
barcha ta’lim oluvchilar jalb etiladi;	guruh ichida o‘zaro nizo paydo bo‘lishi mumkin.
o‘z-o‘zini va guruhlararo baholash imkoniyati mavjud bo‘ladi.	

2.“Keys-stadi” metodi

“Keys-stadi” - inglizcha so‘z bo‘lib, (“case” – aniq vaziyat, hodisa, “stadi” – o‘rganmoq, tahlil qilmoq) aniq vaziyatlarni o‘rganish, tahlil qilish asosida o‘qitishni amalga oshirishga qaratilgan metod hisoblanadi. Mazkur metod dastlab 1921 yil Garvard universitetida amaliy vaziyatlardan iqtisodiy boshqaruv fanlarini o‘rganishda foydalanish tartibida qo‘llanilgan. Keysda ochiq axborotlardan yoki aniq voqea-hodisadan vaziyat sifatida tahlil uchun foydalanish mumkin. Keys harakatlari o‘z ichiga quyidagilarni qamrab oladi: Kim (Who), Qachon (When), Qayerda (Where), Nima uchun (Why), Qanday/ Qanaqa (How), Nima-natija (What).

“Keys metodi” ni amalga oshirish bosqichlari

Ish bosqichlari	Faoliyat shakli va mazmuni
1-bosqich: Keys va uning axborot ta’minoti bilan tanishtirish	- yakka tartibdagi audio-vizual ish; - keys bilan tanishish (matnli, audio yoki media shaklda); - axborotni umumlashtirish; - axborot tahlili; -
2-bosqich: Keysni Aniqlashtirish va o‘quv topshirig‘ni belgilash	- individual va guruhda ishlash; - muammolarni dolzarblik iyerarxiyasini aniqlash; - asosiy muammoli vaziyatni belgilash

3-bosqich: Keysdagi asosiy muammoni tahlil etish orqali o‘quv topshirig‘ining yechimini izlash, hal etish yo‘llarini ishlab chiqish	- individual va guruhda ishlash; - muqobil y e chim yo‘llarini ishlab chiqish; - har bir y e chimning imkoniyatlari va to‘siqlarni tahlil qilish; - muqobil yechimlarni tanlash
4-bosqich: Keys yechimini yechimini shakllantirish va asoslash, taqdimot.	- yakka va guruhda ishlash; - muqobil variantlarni amalda qo‘llash imkoniyatlarini asoslash; - ijodiy-loyiha taqdimotini tayyorlash; - yakuniy xulosa va vaziyat y e chimining amaliy aspektlarini yoritish



3. “FSMU” metodi

Metodning maqsadi: Mazkur metod ishtirokchilardagi umumiy fikrlardan xususiy xulosalar chiqarish, taqqoslash, qiyoslash orqali axborotni o‘zlashtirish, xulosalash, shuningdek, mustaqil ijodiy fikrlash ko‘nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi. Mazkur metoddan ma’ruza mashg‘ulotlarida, mustahkamlashda, o‘tilgan mavzuni so‘rashda, uyga vazifa berishda hamda amaliy mashg‘ulot natijalarini tahlil etishda foydalanish tavsiya etiladi.

Metodni amalga oshirish tartibi:

-qatnashchilarga mavzuga oid bo‘lgan yakuniy xulosa yoki g‘oya taklif etiladi;

- har bir ishtirokchiga FSMU metodining bosqichlari yozilgan qog‘ozlarni tarqatiladi:

-ishtirokchilarning munosabatlari individual yoki guruhiy tartibda taqdimot qilinadi.

FSMU tahlili qatnashchilarda kasbiy-nazariy bilimlarni amaliy mashqlar va mavjud tajribalar asosida tezroq va muvaffaqiyatli o‘zlashtirilishiga asos bo‘ladi.

4. “Assesment” metodi

Metodning maqsadi: Mazkur metod ta’lim oluvchilarning bilim darajasini baholash, nazorat qilish, o‘zlashtirish ko‘rsatkichi va amaliy ko‘nikmalarini tekshirishga yo‘naltirilgan. Mazkur texnika orqali ta’lim oluvchilarning bilish faoliyati turli yo‘nalishlar (test, amaliy ko‘nikmalar, muammoli vaziyatlar mashqi, qiyosiy tahlil, simptomlarni aniqlash) bo‘yicha tashhis qilinadi va baholanadi.

Metodni amalga oshirish tartibi:

“Assesment” lardan ma’ruza mashg‘ulotlarida talabalarning yoki qatnashchilarning mavjud bilim darajasini o‘rganishda, yangi ma’lumotlarni bayon qilishda, seminar, amaliy mashg‘ulotlarda esa mavzu yoki ma’lumotlarni o‘zlashtirish darajasini baholash, shuningdek, o‘z-o‘zini baholash maqsadida individual shaklda foydalanish tavsiya etiladi. Shuningdek, pedagoglarning ijodiy yondashuvi hamda o‘quv maqsadlaridan kelib chiqib, assesmentga qo‘shimcha topshiriqlarni kiritish mumkin.

5. “Tushunchalar tahlili” metodi

Metodning maqsadi: mazkur metod talabalar yoki qatnashchilarni mavzu buyicha tayanch tushunchalarni o‘zlashtirish darajasini aniqlash, o‘z bilimlarini mustaqil ravishda tekshirish, baholash, shuningdek, yangi mavzu buyicha dastlabki bilimlar darajasini tashhis qilish maqsadida qo‘llaniladi. Metodni amalga oshirish tartibi:

-ishtirokchilar mashg‘ulot qoidalari bilan tanishtiriladi;

- o‘quvchilarga mavzuga yoki bobga tegishli bo‘lgan so‘zlar, tushunchalar nomi tushirilgan tarqatmalar beriladi (individual yoki guruhli tartibda);

- o‘quvchilar mazkur tushunchalar qanday ma’no anglatishi, qachon, qanday holatlarda qo‘llanilishi haqida yozma ma’lumot beradilar;

- belgilangan vaqt yakuniga yetgach o‘qituvchi berilgan tushunchalarning to‘gri va to‘liq izohini o‘qib eshittiradi yoki slayd orqali namoyish etadi;

- har bir ishtirokchi berilgan tugri javoblar bilan uzining shaxsiy munosabatini taqqoslaydi, farqlarini aniqlaydi va o‘z bilim darajasini tekshirib, baholaydi.

Namuna: “Moduldagi tayanch tushunchalar tahlili”

Tushunchalar	Sizningcha bu tushuncha qanday ma’noni anglatadi?	Qo‘shimcha ma’lumot
Ta’lim		
Bilish		
Zehn		
Didaktika		
Meditatsiya		
Nazariy tafakkur		

Izoh: Ikkinchi ustunchaga qatnashchilar tomonidan fikr bildiriladi.

6. Venn diagrammasi metodi

Metodning maqsadi: Bu metod grafik tasvir orqali o‘qitishni tashkil etish shakli bo‘lib, u ikkita o‘zaro kesishgan aylana tasviri orqali ifodalanadi. Mazkur metod turli tushunchalar, asoslar, tasavurlarning analiz va sintezini ikki aspekt orqali ko‘rib chiqish, ularning umumiy va farqlovchi jihatlarini aniqlash, taqqoslash imkonini beradi.

1-MAVZU. MTTDA BOLALARNING RIVOJLANISH ASOSLARI
(2 soat nazariy mashg‘ulot)

Reja:

1. Rivojlanish bosqichlari va asosiy jihatlar
2. Bolalarning rivojlanish asoslarini nazariy tahlili
3. Bolalarning rivojlanish xususiyatlari va usullari

Tayanch so‘z va iboralar: jismoniy rivojlanish, kognitiv rivojlanish, emotsional rivojlanish, ijtimoiy rivojlanish, til va nutq rivojlanishi

Mashg‘ulotning texnologik xaritasi

O‘quv bloki	Umumkasbiy ko‘nikmalarni rivojlantirish				
O‘quv modul	Maktabgacha yoshdagi bolalar psixologiyasi				
Mavzu	2.1 Mttda bolalarning rivojlanish asoslari				
Davomiyligi	80 daqiqa				
Mashg‘ulotning maqsadi	Bolaalrni rivojlanish asoslarini o‘rganish				
Mashg‘ulot bosqichlari	**Faoliyat tavsifi**	**Vaqt, daqiqa**	**Metodlar**	**Zarur jihozlar**	**Natija**
1. Tashkiliy qism	Salomlashish Maqsad va reja bilan tanishtirish Mashg‘ulotning dolzarbligini asoslab berish	5	Suhbat, tushuntirish		O‘qituvchilar mashg‘ulotga tayyor bo‘lishadi.
2. Motivatsiya	"Mavzuning dolzarbligi" haqida qisqa muhokama	5	Muammoli vaziyat yaratish, muhokama		O‘qituvchilar mavzuga qiziqadi va ishtirok etishga rag‘batlanadi.
3. Nazariy qism	Zamonaviy ta’limda ijtimoiy-hissiy intellektning ahamiyati Slaydlar bilan tushuntirish	15	Taqdimot, ko‘rgazmali tushuntirish	1-12-slaydlar	O‘qituvchilar yangi texnologiyalarni nazariy jihatdan o‘rganadi.
4. Amaliy mashg‘ulot	Guruhlarda ishlash: amaliy topshiriqlar bajarish Misollar va vaziyatlarni muhokama qilish	30	Guruhlarda ishlash, platformalardan foydalanish	Suhbat 1-2-tarqatmalar	O‘qituvchilar o‘z fikrlarini bildiradi va amaliy ko‘nikmalar hosil qiladi.

5. Tahlil va muhokama	Guruhlar ishlari bo‘yicha topshiriqlar Ijtimoiy hodisalarni muhokama qilish Mashg‘ulot jarayoni bo‘yicha fikr-mulohazalar olish	15	Suhbat, muhokama, tahlil		O‘qituvchilar o‘z tajribalarini o‘rtoqlashadi va yangi g‘oyalarni o‘zlashtiradi.
6. Refleksiya	"Ijtimoiy-hissiy intellekt" tushunchasiga ta’rif berish orqali xulosa qilish "O‘z hislarini nazorat qilish" orqali o‘z-o‘zini baholash	5	Refleksiya usullari	Sxematerafiya metodi orqali ijtimoiy-hissiy intellektni tushuntirish	O‘qituvchilar o‘z faoliyatini baholaydi va o‘rganilgan ma’lumotlarni qayta ko‘rib chiqadi.
7. Yakunlash va baholash	Mashg‘ulot natijalarini umumlashtirish Kelgusi mashg‘ulotlar uchun tavsiyalar berish	5	Suhbat va xulosa chiqarish		O‘qituvchilar mashg‘ulotdan qoniqish bilan chiqadi va yangi maqsadlar bilan yo‘naltiriladi.

Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida bolalarning rivojlanish asoslarini tushunish pedagogik faoliyatning muhim jihatlaridan biridir. Har bir bolaning jismoniy, kognitiv, emotsional va ijtimoiy rivojlanish xususiyatlarini bilish tarbiyachilarga individual yondashuvni yaratish, o‘quv jarayonini samarali tashkil etish va bolalarning ichki motivatsiyasini oshirish imkonini beradi. Ushbu mavzu bolalarning rivojlanish bosqichlarini, asosiy psixologik jarayonlarni va pedagogik yondashuvlarni tushuntirishga qaratilgan.

Jismoniy rivojlanish bolaning motorika, koordinatsiya, chidamlilik va sog‘liq holatini o‘z ichiga oladi. MTTda bolalarning motorik qobiliyatlarini rivojlantirish orqali ularning umumiy faoliyati va mustaqilligi oshadi. Bolalar o‘yin va jismoniy mashqlar orqali qo‘llarini, oyoqlarini va tana koordinatsiyasini rivojlantiradilar. Shu bilan birga, jismoniy rivojlanish bolalarning emotsional barqarorligi va stressga chidamliligiga ham ta’sir ko‘rsatadi. Tarbiyachilar jismoniy mashg‘ulotlarni bolalarning yoshiga moslab tashkil etishi, xavfsizlik va sog‘liqni ta’minlashi zarur. Masalan, kichik yoshdagi bolalar

uchun oddiy harakatli o‘yinlar va motorik mashqlar, biroz kattaroq bolalar uchun esa murakkabroq kombinatsiyali mashqlar samarali hisoblanadi.

Kognitiv rivojlanish bolalarning tafakkur, diqqat, xotira, ijodiy fikrlash va muammoni hal qilish qobiliyatlarini rivojlantiradi. Maktabgacha yoshdagi bolalar o‘z tajribalaridan foydalanib dunyoni anglaydilar va ular uchun turli qiziqarli mashg‘ulotlar, o‘yinlar, topishmoqlar va masalalarni hal qilish orqali tafakkur rivojlantiriladi. Shu bilan birga, so‘z boyligini oshirish, tasavvur va fikrlash qobiliyatini rivojlantirishga yo‘naltirilgan mashg‘ulotlar bolalarning kognitiv rivojlanishi uchun muhim ahamiyatga ega.

Emotsional rivojlanish bolalarning o‘z hissiyotlarini anglash, boshqarish va atrofdagilar bilan moslashish qobiliyatini shakllantiradi. Ijtimoiy rivojlanish esa bolalarning guruh ichida muloqot qilish, do‘stona aloqalar o‘rnatish va muammolarni birgalikda hal qilish qobiliyatini oshiradi. Tarbiyachilar bolalarning ijtimoiy va emotsional rivojlanishini o‘yin, rolli vaziyatlar, kichik guruh mashg‘ulotlari va hissiy ko‘nikmalarni mustahkamlash orqali rag‘batlantiradilar. Hamkorlik o‘yinlari orqali bolalar muloqot qoidalarini o‘rganadi va ijtimoiy mas’uliyatni tushunadi.

Til rivojlanishi bolalarning muloqot qilish qobiliyatini, fikrini ifoda etish va ijtimoiy muhitga moslashishini ta’minlaydi. Nutq rivojlanishi orqali bolalar o‘z ehtiyojlarini ifoda etadi, savol-javob jarayonida ishtirok etadi va ijodiy fikrlash qobiliyatini shakllantiradi. Tarbiya jarayonida hikoya qilish, she’rlar o‘qish, o‘yinlar orqali dialog va monolog mashqlari bolalarning til va nutq qobiliyatlarini rivojlantirishda muhim vositadir.

Bolalarning rivojlanishini samarali qo‘llab-quvvatlash uchun tarbiyachilar Piaget, Vygotskiy, Montessori va zamonaviy pedagogik yondashuvlar asoslariga tayangan holda ishlaydi. Piaget kognitiv rivojlanish bosqichlarini tushuntirsa, Vygotskiy ijtimoiy muhitning o‘rganish va rivojlanishga ta’sirini ko‘rsatadi. Montessori usuli esa mustaqil faoliyat va o‘zini rivojlantirishga urg‘u beradi. Ushbu yondashuvlarni uyg‘un qo‘llash bolalarning individual xususiyatlariga moslashgan ta’lim jarayonini tashkil etishga yordam beradi.

Shaxsning kamolga yetishida nasl-irsiyat, ijtimoiy muhit, ta’limtarbiya muhim ahamiyatga ega. Shaxs qaysi jamiyatda ishasa, o‘sha jamiyat hayotidagi qonun-qoidalarga asoslanib kamol topadi. Har bir odam shaxs sifatida turlicha namoyon bo‘’ladi. U o‘zining xarakteri, qiziqishi, qobiliyati, aqliy rivojlanganlik darajasi, ehtiyoj va mehnat faoliyatiga munosabati bilan farqlanadi. Rivojlanish kishidagi jismoniy, ruhiy va ijtimoiy jarayon bo‘lib, u barcha tug‘ma va egallangan miqdor va sifat zgarishlarini o‘z ichiga oladi. Jismoniy rivojlanish bo‘yicha o‘sishi vaznning ortishi, sezgi a’zolarining mukammallashuvi, harakatlarni to‘g‘ri boshqara bilish bilan bog‘liqdir. Ruhiy rivojlanishda esa kishi shaxsidagi psixologik sifatlar belgilarning shakllanishi, emotsional irodaviy, bilish jarayonida muhim o‘zgarishlar ro‘y beradi. Bolaning ijtimoiy rivojlanishi u ijtimoiy hayotda qatnasha boshlaganda uning xulqida, tevarak-atrofga bo‘lgan munosabatida namoyon bo‘ladi. Shaxsning shakllanishi kishilik jamiyati tomonidan yaratilgan ijtimoiy-tarixiy tajribani o‘zlashtirish, ta’lim-tarbiya berish orqali amalga oshiriladi. Bu har xil faoliyatlarda yuzaga keladi . Bolalar egallashlari lozim bo‘lgan mazmunni tanlash, uning tanlab olishiga rahbarlik qilish kattalar tomonidan ta’lim-tarbiya jarayonida amalga oshiriladi. Tarbiya va ta’limning mazmuni, vositalari, metodlari, bolaning rivojlanish jarayoni ularning yoshi bilan izohlanadi, jumladan, kichik yoshdagi bolalar bilan ish olib borilganda ularning mustaqil hayotga butunlay aralashmaganligi hisobga olinadi. Keyingi yosh guruhlarda maktabgacha yoshdagi bolaning mustaqilligi, moslashishi ancha oshib boradi. Shunga muvofiq tarzda ta’lim-tarbiyaviy ishlarning vazifalari, mazmuni, vositalari o‘zgaradi. Bolalarning maktabgacha yoshning oxiriga borib erishgan rivojlanish darajasi ular bilan olib boriladigan ta’lim-tarbiya ishini murakkablashtirish imkonini beradi. Ijtimoiytarixiy tajribani o‘zlashtirish faol ish jarayonini beradi. Faollik bolaga xos xususiyatdir. Tarbiya jarayonida- faollik asosida faoliyatning har xil turlari shakllanadi. Ta’lim-tarbiya orqali amalga oshiriladigan faoliyatlarni maktabgacha yoshdagi bolalar birdaniga o‘zlashtirib olmaydilar, ularni bolalar tarbiyachi rahbarligida sekin-asta egallab oladilar. Bolalar hayotining birinchi yilidanoq faoliyatning eng oddiy lari undagi shaxsiy qobiliyatlar, xususiyatlar, tevarak-atrof ma’lum bir munosabatning

shakllanishiga asos bo‘lib xizmat qiladi. Masalan, kattalarning hissiy-predmetli munosabatlaridanoq bolada dastlabki ijtimoiy talab vujudga keladi, dastlabki harakat va tasavvurlar, taassurotlar shakllana boshlaydi. Harakat usullarini egallab borish orqali bolada faollik rivojlanadi. Ammo faollikning qay darajada rivojlanib borishi irsiyatga hamda taqlidchanlik qobiliyatiga bog‘liq. Bola hayotining dastlabki yillarida kattalar bilan bo‘ladigan munosabati va narsa-buyumlar bilan bajargan harakati asosiy faoliyat turi hisoblanadi. Bola bilan muomala qilish orqali kattalar ularni astasekin buyumlar olamiga olib kiradilar. Mana shu yo‘l bilan bola buyumlar bilan bo‘ladigan faoliyatning o‘ziga xos tomonlarini egallab boradi. 2,5 yoshdan keyin buyumlar bilan bo‘ladigan faoliyatda bolalar ancha yuqori ko‘rsatkichlarga erishadilar va ularning o‘yin hamda tasviriy faoliyatga o‘tishlari uchun asos yaratiladi. Kattalar tomonidan tashkil etilgan muomala munosabatlarida, faoliyatlarda o‘z-o‘zini anglab olishning dastlabki shakllari shakllanadi. Mashg‘ulotlardagi o‘quv faoliyati orqali bolalar tevarakatrofidagi tabiat to‘g‘risida, ijtimoiy hayot, kishilar to‘g‘risidagi bilimlarni o‘zlashtirib oladilar. Shuningdek, ularning aqliy va amaliy bilimlari kengayib boradi. Agar ta’lim jarayonida 3-4 yoshli bolalar diqqati tabiat, kishilar to‘g‘risidagi konkret faktlarga qaratilsa, 5-6 yoshli bolalarga ta’lim berishda asosiy e’tibor muhim bog‘liqliklar va munosabatlarga, ulardagi oddiy tushunchalarni shakllantirishga qaratiladi. Bular orqali bolalarda tushunarli tafakkur rivojlantiriladi. Kichik maktab yoshidagi bolalar uchun o‘qish asosiy faoliyat bo‘lib qoladi va bu faoliyatni bolalar ijtimoiy ahamiyatli faoliyat deb anglay boshlaydilar, Bola o‘zini maktab o‘quvchisi deb tushuna boshlaydi. Demak, bolani tarbiyalashda, uning rivojlanishida faoliyat yetakchi rol o‘ynaydi. Shuning uchun ta’lim-tarbiya muassasalarida va oilada bolaning hayotini u turli-tuman faoliyatlar bilan shug‘ullana oladigan qilib tashkil etish kerak. Bunga,albatta, bolalar faoliyatining mazmunini boyitib borish, yangi bilim malakalarni singdirish mustaqilligini rivojlantirish bilan erishiladi. Odam shaxsini shakllantirish bu tevarak-atrofdagi dunyoga, tabiatga, mehnatga, boshqa odamlarga va o‘ziga munosabat sistemasini izchil o‘zgartirish va murakkablashtirishdir. Bu uning butun hayoti davomida ro‘y beradi. Bunda bolalik va o‘smirlik yoshi, ayniqsa, muhimdir. Odamning shaxs sifatida

rivojlanishi uning jismoniy va ma’naviy kuchlari birligida har tomonlama va yaxlit amalga oshiriladi. Dunyoqarash, e’tiqod, ma’naviy sifatlar, his-tuyg‘ular (burch, vijdon, mas’uliyat, muhabbat] madaniyati aniq tarixiy ijtimoiy sharoitda 53 yaratiladi va shaxsning shakllanishiga ta’sir, etadi. Shaxs faoliyati muomalada shakllanadi hamda rivojlanadi. Agar odam ijtimoiy faoliyatning turli xillarida: o‘quv, ishlab chiqarish faoliyati va hokazolarda ishtirok etsa, bu faoliyat shaxsni rivojlantiradi, lekin faoliyat odamni u yoki bu ijtimoiy munosabatlardan chegaralab qo‘ysa, u shaxsning rivojlanishiga to‘sqinlik qiladi yoki uning rivojlanishini buzadi. Shaxsning yetakchi xususiyatlari shaxsga, uning ichki dunyosiga tashqi ta’sir natijasida rivojlanadi. Shaxsning ma’naviy hayot mazmuni - bu shaxsning o‘z ichki ishining yakuni bo‘lib, bu jarayonda tashqi ta’sirlar qayta ishlanadi va o‘zlashtiriladi. Odamning rivojlanishi - bu miqdor va sifat o‘zgarishi, eskining yo‘q bo‘lishi va yangining vujudga kelishi jarayoni bo‘lib, uning manbayi va harakatlantiruvchi kuchlari shaxsning ham tabiiy, ham ijtimoiy tomonlarining ziddiyatli o‘zaro aloqasida yashiringandir. Odamning tabiiy tomoni uning butun umri davomida rivojlanadi va o‘zgaradi. Bu rivojlanish va o‘zgarishlar yosh xususiyatiga ega bo‘ladi. Shaxsning ijtimoiy rivojlanish manbayi shaxs bilan jamiyatning ziddiyatli o‘zaro aloqasida yashiringandir.



Bola hayotining dastlabki yillarida kattalar bilan bo‘ladigan munosabati va narsa-buyumlar bilan bajargan harakati asosiy faoliyat turi hisoblanadi. Bola bilan muomala qilish orqali kattalar ularni astasekin buyumlar olamiga olib kiradilar. Mana shu yo‘l bilan bola buyumlar bilan bo‘ladigan faoliyatning o‘ziga xos tomonlarini egallab boradi. 2,5 yoshdan keyin buyumlar bilan bo‘ladigan faoliyatda bolalar ancha yuqori ko‘rsatkichlarga erishadilar va ularning o‘yin hamda tasviriy faoliyatga o‘tishlari uchun asos yaratiladi. Kattalar tomonidan tashkil etilgan muomala munosabatlarida, faoliyatlarda o‘z-o‘zini anglab olishning dastlabki shakllari shakllanadi. Mashg‘ulotlardagi o‘quv faoliyati orqali bolalar tevarakatrofidagi tabiat to‘g‘risida, ijtimoiy hayot, kishilar to‘g‘risidagi bilimlarni o‘zlashtirib oladilar. Shuningdek, ularning aqliy va amaliy bilimlari kengayib boradi. Agar ta’lim jarayonida 3-4 yoshli bolalar diqqati tabiat, kishilar to‘g‘risidagi konkret faktlarga qaratilsa, 5-6 yoshli bolalarga ta’lim berishda asosiy e’tibor muhim bog‘liqliklar va munosabatlarga, ulardagi oddiy tushunchalarni shakllantirishga qaratiladi. Bular orqali bolalarda tushunarli tafakkur rivojlantiriladi. Kichik maktab yoshidagi bolalar uchun o‘qish asosiy faoliyat bo‘lib qoladi va bu faoliyatni bolalar ijtimoiy ahamiyatli faoliyat deb anglay boshlaydilar, Bola o‘zini maktab o‘quvchisi deb tushuna boshlaydi. Demak, bolani tarbiyalashda, uning rivojlanishida faoliyat yetakchi rol o‘ynaydi. Shuning uchun ta’lim-tarbiya muassasalarida va oilada bolaning hayotini u turli-tuman faoliyatlar bilan shug‘ullana oladigan qilib tashkil etish kerak. Bunga, albatta, bolalar faoliyatining mazmunini boyitib borish, yangi bilim malakalarni singdirish mustaqilligini rivojlantirish bilan erishiladi. Odam shaxsini shakllantirish bu tevarak-atrofdagi dunyoga, tabiatga, mehnatga, boshqa odamlarga va o‘ziga munosabat sistemasini izchil o‘zgartirish va murakkablashtirishdir. Bu uning butun hayoti davomida ro‘y beradi. Bunda bolalik va o‘smirlik yoshi, ayniqsa, muhimdir. Odamning shaxs sifatida rivojlanishi uning jismoniy va ma’naviy kuchlari birligida har tomonlama va yaxlit amalga oshiriladi. Dunyoqarash, e’tiqod, ma’naviy sifatlar, his-tuyg‘ular (burch, vijdon, mas’uliyat, muhabbat] madaniyati aniq tarixiy ijtimoiy sharoitda 53 yaratiladi va shaxsning shakllanishiga ta’sir, etadi. Shaxs faoliyati muomalada shakllanadi hamda rivojlanadi. Agar odam ijtimoiy faoliyatning turli xillarida: o‘quv, ishlab chiqarish faoliyati va hokazolarda ishtirok etsa, bu faoliyat shaxsni rivojlantiradi, lekin faoliyat odamni u yoki bu ijtimoiy munosabatlardan chegaralab qo‘ysa, u shaxsning rivojlanishiga to‘sqinlik qiladi yoki uning rivojlanishini buzadi. Shaxsning yetakchi xususiyatlari shaxsga, uning ichki dunyosiga tashqi ta’sir natijasida rivojlanadi. Shaxsning ma’naviy hayot mazmuni - bu shaxsning o‘z ichki ishining yakuni bo‘lib, bu jarayonda tashqi ta’sirlar qayta ishlanadi va o‘zlashtiriladi. Odamning rivojlanishi - bu miqdor va sifat o‘zgarishi, eskining yo‘q bo‘lishi va yangining vujudga kelishi jarayoni bo‘lib, uning manbayi va harakatlantiruvchi kuchlari shaxsning ham tabiiy, ham ijtimoiy

tomonlarining ziddiyatli o‘zaro aloqasida yashiringandir. Odamning tabiiy tomoni uning butun umri davomida rivojlanadi va o‘zgaradi. Bu rivojlanish va o‘zgarishlar yosh xususiyatiga ega bo‘ladi. Shaxsning ijtimoiy rivojlanish manbayi shaxs bilan jamiyatning ziddiyatli o‘zaro aloqasida yashiringandir. Maktabgacha ta’lim-tarbiyani tashkil etish fani bu ziddiyatli o‘zaro aloqani ochib tashlaydi va ulardan shaxsni shakllantirish uchun foydalanadi. Jumladan, bolaning odamlar hayotida ishtirok etish ehtiyoji bilan u intilishni amalga oshirish imkoniyatlari o‘rtasidagi ziddiyat faoliyat sifatida o‘yinning vujudga kelishi va rivojlanishiga hamda bolalardagi o‘yin faoliyatida ijtimoiy xulq-atvor shakllari, ijtimoiy munosabatlar va hokazolarning shakllanishiga olib keladi. Shaxsni shakllantirish tarbiya jarayonida ro‘y beradi, inson tarbiyasi uning xalq baxt-saodati yo‘lidagi bunyodkorlik mehnatida, ijtimoiy hayotda, sotsial-iqtisodiy vazifalarini hal etishda namoyon bo‘ladi. Maktabgacha ta’lim-tarbiyani tashkil etishga yetakchi omil deb qaraydi, chunki bu to‘plangan ijtimoiy tajribani yetkazish uchun yosh avlodga ta’sir ko‘rsatishning maxsus uyushtirilgan sistemasidir. U oilada, bolalar bog‘chasida, maktabda, mehnat jamoalarida amalga oshirilib, turmushni, faoliyatni, muomalani tashkil etishga qaratilgandir.



Shaxsni shakllantirishga muhit (ijtimoiy va tabiiy muhit) katta ta’sir ko‘rsatadi. Ijtimoiy muhit shaxsni rivojlantirishda ustun ahamiyatga ega: ishlab chiqarishning taraqqiyot darajasi va ijtimoiy munosabatlar xususiyati kishilar faoliyati va dunyoqarashi xususiyatini belgilab beradi. Tabiiy muhit (iqlim sharoitlari, o‘simliklar, hayvonot dunyosining ahvoli) ham shaxsning shakllanishiga ta’sir ko‘rsatadi. Jamiyat tabiiy boyliklarni muhofaza qilib va ko‘paytirib, kishilarni hayvonlarni, o‘simliklarni, suv havzalarini va hokazolarni muhofaza etishga jalb qiladi, tabiat bilan faol muloqotda bo‘lishi uchun keng imkoniyatlar yaratadi, bu esa o‘z navbatida odamga har tomonlama

ta’sir ko‘rsatadi. Shaxs muayyan ijtimoiy jamiyat mahsulidir. Shaxsning hayotiy faoliyatida ijtimoiy muhit unga ijobiy, yoki salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Ijtimoiy jamiyat shaxs imkoniyatlarini ro‘yobga chiqarishi yoki yo‘q qilishi mumkin. Bu jamiyatning ma’naviy qiyofasi, unda tashkil etilayotgan munosabatlar mazmuni hamda darajasiga bog‘liq. Muhit deganda shaxsning shakllanishiga ta’sir etuvchi tashqi olam voqelik, hodisalar majmui tushuniladi. “Muhit” tushunchasi o‘zida geografik-hududiy, ijtimoiy va mikro muhit (oila) xususiyatlarini ifoda etadi. Mikromuhit o‘zida qisman ijtimoiy muhit qiyofasini aks ettiradi. Ayni chog‘da u nisbatan mustaqillikka ega. Mikromuhit, bu ijtimoiy muhitning bir qismi bo‘lib, oila, maktab, do‘stlar, tengqurlar, kishilar va shu kabilarni o‘z ichiga oladi. Bolani qurshab turgan muhitda ijobiy va salbiy rivojlantiruvchi va inqirozga eltuvchi hodisalar mavjud. Agar bola o‘z tug‘ma layoqatiga mos sharoitda o‘sib, zarur faoliyat bilan shug‘ullansa, layoqat erta ko‘rinib Shaxsni shakllantiruvchi omillar Ijtimoiy muhit Tarbiya Irsiyat nishonalari rivojlanishi, aksincha, bunday muhit bo‘lmasa yo‘q bo‘lishi yoki “mudroq”ligicha qolib ketishi ham mumkin. Bundan tashqari odob, axloq, xulqiy sifatlar, shaxsning barcha ruhiy sifatlari faqat muhit va tarbiyaning o‘zaro ta’siri asosida vujudga keladi.

Tarbiya – biror maqsadga yo‘naltirilgan jarayon bo‘lib, u muayyan darajadagi dastur g‘oyalari asosida maxsus kasbiy tayyorgarlikka ega bo‘lgan kishilar tomonidan tashkil etiladi. Tarbiya ijtimoiy muhit orqali keladigan tarbiyaviy ta’sirlarning barchasi bilan bog‘liq holda ta’sir qiladi. Bunda qulay omillardan foydalaniladi, salbiy ta’sirlarning kuchini ma’lum darajada kamaytiradi. Muhitning ta’siri stixiyali, tarbiyaning ta’siri esa maqsadga muvofiq olib boriladi. Irsiyat – bu ota qoni yoki ajdodlariga xos bo‘lgan biologik xususiyat va o‘xshashliklarning naslga (bolaga) o‘tish jarayonidir. Irsiyat nishonalari shaxsni shakllantirishning obyektiv omillariga kiradi. Odamlar organizmdagi anatomik tuzilishni, fiziologik harakatni, modda almashinuvi tipini, asab sistemasi tipi va qayishqoqligini (bular uning atrof-muhit ta’siriga beriluvchan qilib qo‘yadi), asab reaksiyalari jo‘shqinligi va tezligini meros qilib oladilar. Asosiy shartsiz reflekslar ham, xilma-xil faoliyat turlariga qobiliyatning alohada anatomik-fiziologik asoslari - qobiliyat nishonalari ham meros bo‘ladi. 56 Irsiyat qonunlari to‘g‘risidagi fan - genetika odamlarda yuzlab turli qobiliyat nishonalari – mutlaq eshitish, favqulodda ko‘rish xotirasi, g‘oyat tez ta’sirlanishdan tortib nodir matematik va badiiy iste’dodgacha mavjud bo‘lishini nazarda tutadi. Nasldan naslga o‘tadigan xususiyatlarga quyidagilar kiradi: Anatomik-fiziologik tuzilish (misol uchun yuz tuzilishi}, organlar holati, qaddi-qomat, asab tuzilishi xususiyatlari, teri, soch hamda ko‘zlarning rangi. Iste’dod alomatlari umumiy xususiyat kasb etadi, muayyan mehnat va ijod turiga yo‘naltirilgan emas. Iste’dod alomatlari muayyan faoliyatga moyillikni aks ettiradi, xolos.

2-MAVZU. MAKTABGACHA TA’LIM TASHKILOTLARIDA O‘YIN VA O‘RGANISH
(2 soat amaliy mashg‘ulot)

Reja:

1. O‘yin va o‘rganishning asosiy tushunchalari
2. O‘yin orqali o‘rganish jarayoni
3. Tarbiyachilar va ota-onalarning ishtiroki
4.

Tayanch so‘zlar: o‘yin va o‘rganish, maktabgacha yoshdagi o‘yin, individual o‘yin, guruh o‘yinlari, rolli o‘yinlar, konstruktiv o‘yinlar, ijodiy o‘yinlar

Mashg‘ulotning texnologik xaritasi

O‘quv bloki	Umumkasbiy ko‘nikmalarni rivojlantirish				
O‘quv modul	Maktabgacha yoshdagi bolalar psixologiyasi				
Mavzu	Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida o‘yin va o‘rganish				
Davomiyligi	80 daqiqa				
Mashg‘ulotning maqsadi	Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida o‘yin va o‘rganishning o‘ziga xos psixologik xususiyatlarinin o‘rganish				
Mashg‘ulot bosqichlari	**Faoliyat tavsifi**	**Vaqt, daqiqa**	**Metodlar**	**Zarur jihozlar**	**Natija**
1. Tashkiliy qism	Salomlashish Maqsad va reja bilan tanishtirish Mashg‘ulotning dolzarbligini asoslab berish	5	Suhbat, tushuntirish		O‘qituvchilar mashg‘ulotga tayyor bo‘lishadi.
2. Motivatsiya	"Mavzuning dolzarbligi" haqida qisqa muhokama	5	Muammoli vaziyat yaratish, muhokama		O‘qituvchilar mavzuga qiziqadi va ishtirok etishga rag‘batlanadi.
3. Nazariy qism	Maktab o‘quvchilari kognitiv rivojlanishining psixologik o‘ziga xosliginihg ahamiyati Slaydlar bilan tushuntirish	15	Taqdimot, ko‘rgazmali tushuntirish	1-12-slaydlar	O‘qituvchilar yangi texnologiyalarni nazariy jihatdan o‘rganadi.
4. Amaliy mashg‘ulot	Guruhlarda ishlash: amaliy topshiriqlar bajarish Misollar va vaziyatlarni muhokama qilish	30	Guruhlarda ishlash, platformalardan foydalanish	Suhbat 1-2-tarqatmalar	O‘qituvchilar o‘z fikrlarini bildiradi va amaliy ko‘nikmalar hosil qiladi.

5. Tahlil va muhokama	Guruhlar ishlari bo‘yicha topshiriqlar Maktab o‘quvchilarining kognitiv rivojlanishi psixologik o‘rganish Mashg‘ulot jarayoni bo‘yicha fikr-mulohazalar olish	15	Suhbat, muhokama, tahlil		O‘qituvchilar o‘z tajribalarini o‘rtoqlashadi va yangi g‘oyalarni o‘zlashtiradi.
6. Refleksiya	"Diqqat, Xotira, Nutq, Tafakkur" rivojlanishiga oid mashlarni o‘tkazish "mantiqiy fiklash" mashqi orqali so‘z-mantiq xotirani yaxshilash	5	Refleksiya usullari	Qarmoq usuli orqali xotirani yaxshilash	O‘qituvchilar o‘z faoliyatini baholaydi va o‘rganilgan ma’lumotlarni qayta ko‘rib chiqadi.
7. Yakunlash va baholash	Mashg‘ulot natijalarini umumlashtirish Kelgusi mashg‘ulotlar uchun tavsiyalar berish	5	Suhbat va xulosa chiqarish		O‘qituvchilar mashg‘ulotdan qoniqish bilan chiqadi va yangi maqsadlar bilan yo‘naltiriladi.

Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida o‘yin va o‘rganish

Maktabgacha yoshdagi bolalar uchun o‘yin va o‘rganish faoliyati ularning umumiy rivojlanishining asosiy vositalaridan biridir. O‘yin bolalarga yangi bilimlarni qiziqarli va tabiiy shaklda o‘zlashtirish imkonini beradi, shuningdek, ijtimoiy, emotsional va kognitiv ko‘nikmalarni rivojlantiradi. Bolalar o‘yin orqali nafaqat o‘rganadi, balki muloqot qilish, muammolarni hal qilish, hamkorlik qilish va o‘z hissiyotlarini boshqarish kabi muhim ko‘nikmalarni shakllantiradilar.

O‘yin turlari turlicha bo‘lib, ular bolalarning yoshiga, qiziqishiga va rivojlanish darajasiga moslashtiriladi. Individual o‘yinlar bolaning mustaqil fikrlashini va shaxsiy qobiliyatlarini rivojlantirsa, guruh o‘yinlari ijtimoiy ko‘nikmalarni, hamkorlik va kommunikativ qobiliyatlarni oshiradi. Rolli o‘yinlar esa bolalarga turli vaziyatlarda o‘zini tutish, hissiyotlarni anglash va boshqalar bilan muomala qilish imkonini beradi. Konstruktiv va ijodiy o‘yinlar esa tafakkur va fantaziya rivojlanishiga xizmat qiladi.

O‘yin va o‘rganish jarayonida tarbiyachining roli katta ahamiyatga ega. Tarbiyachi o‘yinlarni rejalashtiradi, bolalarni faol ishtirok etishga rag‘batlantiradi, ularni kuzatadi va individual xususiyatlariga mos qo‘llab-quvvatlaydi. Shu bilan birga, ota-onaning ham ishtiroki muhimdir, chunki ular bolalarning o‘yin va o‘rganish jarayonida qo‘shimcha rag‘bat va yordam ko‘rsatishi mumkin.

O‘yin orqali o‘rganish bolalarga nazariy bilimlarni amaliy tajriba bilan uyg‘unlashtirish imkonini beradi. Masalan, matematik tushunchalarni o‘yin shaklida o‘rgatish, tabiiy fanlarni eksperiment va kuzatish orqali tushuntirish yoki til ko‘nikmalarini hikoya va rolli o‘yinlar orqali rivojlantirish mumkin. Shu tarzda o‘yin va o‘rganish bolalarning ichki motivatsiyasini oshiradi, ularni faol, qiziqarli va ijobiy ruhda ta’lim olishga undaydi.

Nazariy nuqtai nazardan, Piaget va Vygotskiy yondashuvlari o‘yin va o‘rganishning ahamiyatini tasdiqlaydi. Piaget bolalarning kognitiv rivojlanish bosqichlarini, Vygotskiy esa ijtimoiy muhit va muloqot orqali o‘rganishning o‘rni va rolini ko‘rsatadi. Montessori metodikasi esa mustaqil faoliyat va o‘zini rivojlantirishga urg‘u beradi. Zamonaviy pedagogik yondashuvlar esa interaktiv va loyiha asosidagi mashg‘ulotlar orqali o‘yin va o‘rganishni yanada samarali qiladi.

O‘yin inson o‘zligining namoyon bo‘1ishi, uning takomillashuv usulidir. O‘yin kattalar hayotida muayyan o‘rin tutar ekan, u bolalar uchun alohida ahamiyatga egadir. Uni “bolalikning hamrohi” deb atash qabul qilingan. U maktabgacha yoshdagi bolalar hayotining asosiy mazmunini tashkil etadi. Mehnat va ta’1im bilan uzviy aloqada bo‘1gan holda yetakchi faoliyat sifatida namoyon bo‘ladi. Bola shug‘ullanadigan ko‘pchi1ik jiddiy ishlar o‘yin shaklida bo‘1adi. O‘yinda shaxsdagi barcha mavjud jihatlar ishga tushadi: bola harakat qiladi, gapiradi, idrok etadi, o‘ylaydi. O‘yin tarbiyaning muhim vositasi sifatida namoyon bo‘ladi. O‘yin qadim zamonlardan beri pedagog, psixolog, faylasuf, etnograf, san’atshunos olimlar diqqatini o‘ziga tortib kelgan bo‘lib, jamiyat hayotida mehnatdan keyin turadi va uning mazmunini belgilaydi. Ibtidoiy jamoa qabilalari o‘z o‘yinlarida ovchilik, urush, dehqonchilik ishlarini aks ettirganlar. Masalan, o‘sha davrdagi ba’zi qabilalarning sholi sepish jarayoni o‘yinlar bilan juda katta tantana qilib amalga oshirilar edi. Y.A.Komenskiy, K.D.Ushinskiy, A.S.Makarenko, P.F.Lestgaflarning g‘oyalari hozirgi zamon bolalar o‘yinlari nazariyasi uchun ham ahamiyatlidir. “Bolalar o‘yini ko‘p asrlik tarixga ega, – deb yozgan edi K.D.Ushinskiy, –u insonning o‘zi tomonidan ishlab chiqilgan qudratli tarbiyaviy vosita va shuning uchun ham unda inson tabiatining haqiqiy ehtiyoji ifodalangan”. Yan Amos Komenskiy o‘yinni bola faoliyatining, uning tabiati va mayllariga to‘g‘ri keladigan zarur shakli deb hisoblaydi. Uning fikricha, o‘yin – bolaning barcha qobiliyat ko‘rinishlari rivojlanadigan jiddiy aqliy faoliyatdir, o‘yinda borliq, dunyo haqidagi tasavvurlar doirasi kengayadi va boyiydi, nutq rivojlanadi. Bola o‘yin davomida tengqurlari bilan do‘stlashadi. Y.A. Komenskiy o‘yinga quvnoq bolalik va bolani uyg‘un rivojlanish sharti sifatida qarar ekan, kattalarga bolalar o‘yinlariga e’tiborli munosabatda bo‘lishni, ularga oqilona rahbarlik qilishni maslahat bergan edi. P.F.Lestgaft bolalar o‘z o‘yinlarida tevarak-atrofdan olgan taassurotlarini aks ettiradilar, deydi. Bunday faoliyat bolaning rivojlanishida katta ahamiyatga egadir. Shunday qilib

o‘yinning ijtimoiy voqea ekanligini, o‘yinda tevarak-atrofdagi borliq aks ettirilishini ilg‘or olim va pedagoglar o‘zlarining kuzatish va ilmiy tadqiqotlari orqali isbotlab berdilar. Tarbiyachilar bolalar o‘yiniga rahbarlik qilishda quyidagilarga rioya qilishi lozim: –o‘yin bilan mehnat o‘rtasida to‘g‘ri munosabat o‘rnatish; –o‘yinda bolalarning bo‘lajak mehnat ahliga xos bo‘lgan jismoniy va ruhiy sifatlarini tarbiyalash. Shu tariqa o‘yin tarixiy taraqqiyot jarayonida mehnat faoliyati natijasida paydo bo‘1gan ijtimoiy faoliyatdir; o‘yin doimo haqiqiy hayotni aks ettiradi. Demak, ijtimoiy hayot o‘zgarishi bilan uning mazmuni ham o‘zgaradi; o‘yin ma’lum maqsadga yo‘naltiri1gan ongli faoliyat bo‘lib, uning mehnat bilan ko‘p umumiyligi bor va yoshlarni mehnatga tayyorlashga xizmat qiladi. O‘yin faoliyati asosida boladagi o‘quv faoliyati rivojlanadi, bola qanchalik yaxshi o‘ynasa, u maktabda shunchalik yaxshi o‘qiydi. Ilk yoshli bolalar o‘yin faoliyatining birinchi bosqichi tanishtiruvchi o‘yin bo‘lib, u narsa-buyum-o‘yin faoliyatidir. Uning mazmuni qo‘l ishidagi murakkab va nozik harakatlardir. Keyingi bosqich aks ettirish o‘yini hisoblanadi. Bu ilk yoshli bolalar o‘yini psixologik mazmunining rivojlanishida eng yuqori nuqta hisoblanadi. Kattalar ta’lim-tarbiyaviy ishlarini ma’lum izchillik bilan olib borsalar, bu yoshdagi bolalar narsa va buyumlar nomini, nimaga ishlatilishini bilib oladilar va bu yangi bilimlarni o‘z o‘yinlarida qo‘llay boshlaydilar. Bu yoshdagi bolalar o‘yini mazmun jihatidan predmetli faoliyatni aks ettiradi. Birinchi yoshning oxiri va ikkinchi yoshdagi bolalar o‘yinida syujetni aks ettirish yuzaga keladi. Bola qo‘lidagi buyum bilan undan qanday foydalanish kerakligini aks ettiradi. Navbatdagi bosqich rolli o‘yin bo‘1ib, unda bolalar o‘zlariga tanish bo‘lgan kattalar mehnati va kishilarning ijtimoiy munosabatlarini aks ettiradilar. Bolalar o‘yin faoliyatining bosqichma-bosqich rivojlanishi to‘g‘risidagi ilmiy tasavvurlar har xil yosh guruhlarida bolalarning o‘yin faoliyatiga rahbarlikning aniq sistemali tavsiyalarni ishlab chiqish imkoniyatini yaratdi. Shunday qilib MTMning pedagogik jarayonda o‘yinning tutgan o‘rni juda katta bo‘lib, o‘yindan maktabgacha yoshidagi bolalarni tarbiyalash va ularga ta’lim berishda keng foydalaniladi. Zero: υ o‘yin bolalarning mustaqil faoliyati bo‘lib, unda bolaning ruhiyati namoyon bo‘ladi; υ o‘yin Maktabgacha ta’1im yoshidagi bolalar hayotini tashkil etish shaklidir; υ o‘yin bolalarni har tomonlama tarbiyalash vositalaridan biridir; υ o‘yin bolalarga ta’lim va tarbiya berishning metod va usulidir; υ o‘yin bolalarni o‘quv faoliyatiga tayyorlash vositasidir. Taniqli pedagog-olimlarning olib borgan tadqiqotlari o‘yinga kompleks rahbarlik qilish orqali bolalarga o‘yinning mazmuni, tashkil etilishi, tuzilishi, bolalarning axloqiy munosabatlari, bolalar o‘yinining rivojlanish darajasiga ta'sir etish mumkinligini ko‘rsatdi. Bolalar o‘yini uning mazmuni, xususiyati, tashkil etilishiga ko‘ra xilma-xildir. Ijodiy o‘yinlarni bolalar o‘zlari o‘yIab topishadi. Unda oldindan belgilangan qoidalar bo‘lmaydi. O‘yin qoidasini bolalar o‘zlari o‘yin jarayonida belgilashadi. Qoidali o‘yinlarning mazmuni va qoidasi kattalar tomonidan belgilanadi. Qoidali o‘yin1arga quyidagilar kiradi: didaktik o‘yinlar,

harakatli o‘yinIar, musiqaviy o‘yinlar, ermak o‘yinlar. Bolalarga ta’lim-tarbiya berish maqsadida kattalarning o‘yinni tanlay bilishi, unga to‘g‘ri rahbarlik qilish “MTM ta’lim va tarbiya dasturi“da belgilangan vazifalarni muvaffaqiyatli amalga oshirishni ta’minlaydi. O‘yin bolalarni rivojlantirish va tarbiyalash vositasidir. Psixologlar o‘yinni maktabgacha yosh davrida yetakchi faoliyat deb hisoblaydilar. O‘yin tufayli bolaning yuqori rivojlanish bosqichiga o‘tishini ta’minlovchi sifatlar shakllanadi, ruhiyatida sezilarli o‘zgarishlar yuz beradi. O‘yinda bola shaxsining hamma tomoni birbiriga o‘zaro ta’sir etgan holda shakllanadi. O‘ynayotgan bolani kuzatayotib uning qiziqishlarini, tevarak-atrof to‘g‘risidagi tasavvurini, kattalarga va o‘rtoqlariga bo‘lgan munosabatini bilib olish mumkin. Shaxsdagi biror sifatni tarbiyalash uchun uning boshqa tomonlarini ham rivojlantirish kerak. Masalan, bolaning o‘yiniga qiziqishini, tashkilotchilik qobiliyatini rivojlantirish uchun mazmun jihatidan boy o‘yin1ar yaratilishi kerak. Bolalarning ijodiy o‘yinlarini rivojlantirish uchun esa o‘z navbatida yaxshi tashkil etilgan bolalar jamoasi zarur bo‘ladi. O‘yin bolalarni jismoniy tomondan tarbiyalash sistemasida, MTMning ta’lim-tarbiya ishida, axloqiy, mehnat va estetik tomonlama tarbiyalashda katta o‘rin tutadi. O‘yinda bola organizmiga xos bo‘1gan talab va ehtiyojlar qoniqtiriladi, hayotiy faollik ortadi, bardamlik, tetiklik, quvnoqlik tarbiyalanadi. Shuning uchun ham bolalarni jismoniy tarbiyalash sistemasida o‘yin munosib o‘rin egallaydi. O‘yin ta’1im va mashg‘ulotlar bilan, kundalik hayotdagi kuzatishlar bilan uzviy bog‘liq ho‘1ib juda katta ta’1im-tarbiyaviy ahamiyatga ega. Ijodiy o‘yin1arda muhim bilim egallash jarayoni yuzaga keladi, bu bolaning aqliy kuchini ishga soladi, tafakkurini, xayolini, diqqatini, xotirani faollashtirishni talab qiladi, bola masalalarni mustaqil hal qilishga o‘rganadi, o‘ylagan narsasini amalga oshirish uchun yaxshiroq va osonroq usul o‘ylab topadi, o‘z bilimlaridan foydalanish va uni so‘z bilan ifodalashga o‘rganadi. O‘yinda aks ettirilayotgan narsani bilib olishga qiziqish uyg‘onadi. Ko‘pincha o‘yin bolalarga yangi bilim berish va ularning fikrini, bilim doirasini kengaytirish uchun xizmat qiladi. Ijodiy o‘yinni tor didaktik maqsadlarga bo‘ysundirib bo‘lmaydi, bu o‘yin yordamida juda katta tarbiyaviy vazifalar hal qilinadi. Qoidali o‘yin bolaning sensor rivojlanishini, tafakkur va nutqini, ixtiyorsiz diqqati va xotirasini, har xil harakatlarini muntazam ravishda mashq qildirib borish imkonini beradi. Har bir qoidali o‘yin ma’1um didaktik maqsadga ega bo‘1ib, bolani umumiy rivojlantirishga qaratilgan bo‘ladi. Ta’1imning o‘yin shaklida bo‘lishi muhim ahamiyatga ega bo‘1ib bolani umumiy rivojlantirishga qaratilgan bo‘ladi hamda bolaning yosh xususiyatlariga mos keladi. Qiziqarli o‘yin bolaning aqliy faolligini oshiradi, o‘yinda bola mashg‘ulotdagiga nisbatan murakkabroq masalani hal qilishi mumkin. Bu ta’lim butunlay o‘yin shaklida bo‘lishi kerak degan gap emas. Ta’lim turli usullar va metodlarni qo‘llashni talab etadi. O‘yin ta’lim shakllaridan biri bo‘lib, boshqa bir metod bilan qo‘sliib olib borilgandagina yaxshi natija beradi, bular kuzatish, suhbat,

so‘zlab berish va hokazolar. Bola o‘ynayotib o‘z bilimidan foydalanishni, uni har xil sharoitda ishlata bilishni o‘rganadi. Ijodiy o‘yinlarda bolalarning fantaziyasi, buyum yasashi, tajriba qilishiga keng yo‘l ochiladi. O‘yinda aqliy rivojlanish bilan birga axloqiy sifatlar ham shakllanadi. O‘yin jarayonida ytız bergan kechinmalar bola ongida chuqur iz qoldiradi, shuning uchun o‘yin bolada yaxshi hislarni, ulug‘vor orzular va intilishlarni, sog‘lom qiziqishlarni tarbiyalashga. yordam beradi O‘yin mustaqil faoliyat bo‘lib, bu jarayonda bolalar o‘z tengdoshlari bilan aloqa qilishga kirishadilar. Ularni umumiy maqsad, unga erishishdagi umumiy kechinmalar birlashtiradi. Shuning uchun o‘yin do‘stona munosabatlarni tarbiyalashda, jamoa hayoti malakalarini, tashkilotchilik qobiliyatlarini shakllantirishda muhimdir. Birgalikdagi o‘yin bilan birlashgan kichik bolalar jamoasida murakkab munosabatlar vujudga keladi. Tarbiyachining vazifasi har bir bolani faol o‘yinga jalb qilish, bolalar o‘rtasida do‘stlikka, haqqoniylikka, o‘rtoqlarini javobgarligini sezishga asoslangan munosabatlar o‘rnatishdan iborat. O‘yin mehnat tarbiyasi vazifasini bajarishga ham yordam beradi. Bolalar o‘z o‘yinlarida har xil kasbdagi kishilarni aks ettiradilar. Bu bilan ular kattalarning harakatlariga taqlid qilib qolmay, shu bilan bir qatorda ularning ishiga, mehnatiga bo‘1gan munosabatlarini ham aks ettiradilar. O‘yin bolada ko‘pincha mehnat qilish xohishini uyg‘otadi, o‘yin uchun kerakli narsalarni tayyorlash va yasashga majbur qiladi. O‘yinda hozirgi zamon bolalariga xos bo‘lgan texnikaga qiziqish paydo bo‘ladi va rivojlanadi, bolalar har xil mashinalar yasaydilar va texnik o‘yinchoq1ar bilan o‘ynaydilar. O‘yin estetik tarbiyaning muhim vositasidir. O‘yinda ijodiy xayol, fikrlash qobiliyati yuzaga keladi va rivojlanadi. Yaxshi tanlangan o‘yinchoq badiiy didni tarbiyalashga yordam beradi. Harakatli o‘yinlarda harakatning go‘zalligi va maromi bolalarni o‘ziga maftun qiladi. O‘yinning katta tarbiyalovchi ahamiyati o‘z-o‘zidan amalga oshmaydi. O‘yin befoyda, hatto zararli bo‘1ishi, ba’zan yomon hislarni qo‘zgratishi mumkin. Tarbiyachi o‘yin yordamida bolalarni har tomonlama rivojlantirish vazifasini amalga oshirish uchun unga mulıtazam ravishda ta’sir etib borishi zarur. Bu vazifani hal etishda o‘yin bolalar bog‘chasidagi ta’lim- tarbiyaviy ishning hamma tomonlari bilan bog‘Iangan bo‘lishi kerak. O‘yinda bolalarning mashg‘ulotlarda olgan bilim va malakalari aks etadi va rivojlantiriladi, ular orqali esa bola hayotga o‘rgatiladi. Ikkinchi tomondan, o‘yinda tarbiyalangan sifatlar faoliyatning boshqa turlariga ko‘chiriladi.

O‘yinning maktabgacha ta’1im muassasasi pedagogik jarayonidagi o‘rni. O‘yinning bola tarbiyasidagi asosiy roli bolalar muassasasi hayotini u bilan boyitishni talab etadi. Shuning uchun ham o‘yin bolalar hayotining kun tartibiga doimiy qilib kiritilgan. O‘yinlar uchun nonushtagacha va undan keyin, mashg‘ulot1ardan so‘ng, sayrlardan so‘ng, kechqurun uyga ketishdan oldin vaqt ajratiladi. Ertalab o‘ta harakatchanlikni talab qilmaydigan o‘yinlar uchun sharoit yaratish maqsadga muvofiqdir. Mazmunan ko‘proq didaktik o‘yinchoqlar, stol ustida o‘ynaladigan stol-

bosma o‘yin1ari, syujetli-rolli o‘yin1arni o‘ynagan ma’qul. Sayr davomida harakatli o‘yinlarni, qurish-yasash o‘yinlarini tashkil etish foydalidir. Kun tartibida o‘yin uchun maxsus vaqt belgilash o‘yinning mustaqil faoliyat sifatida mavjud bo‘1ishining va uni bolalar hayotini tashkil etish shakli sifatida, tarbiya vositasi sifatida qo‘llanilishining eng muhim pedagogik shartidir. Bolalar o‘yinning o‘ziga xosligi shundaki, u tevarak-atrofdagi hayotni, kishilarning faoliyati, ishlari, harakatlarini, ularning ish jarayonidagi o‘zaro munosabatlarini aks ettiradi. O‘yin paytida xona bolalar uchun dengiz, o‘rmon, metro, temir yo‘l vagoni bo‘lishi mumkin. Bola hech qachon jim o‘ynamaydi, bitta o‘zi o‘ynasa ham u o‘yinchoq bilan gaplashadi, o‘zi tasvirlayotgan qahramon bilan muloqot o‘rnatadi, onasi, bemor, shifokor xullas hamma- hammaning o‘rniga o‘zi gapiraveradi. So‘z obrazning yaxshiroq ochilishiga yordam beradi. Nutq o‘yin jarayonida juda katta ahamiyatga ega. Nutq orqali bolalar fikr almashadi, o‘z his-tuyg‘u, kechinmalarini o‘rtoqlashadi. So‘z bolalar o‘rtasida do‘stona munosabatlar o‘rnati1ishiga, tevarakatrofdagi hayot voqealariga bir xilda munosabatda bo‘lishga yordam beradi. Bolalarning o‘zi yaratgan o‘yindan kelib chiqadigan yoki kattalar tomonidan taklif etilgan o‘yinning g‘oyasi, mazmuni, o‘yin harakatlari, rollar, o‘yin qoidalari uning tuzilishini tashkil etuvchi qirralardir. O‘yin g‘oyasi - bu nima o‘ynashni belgilab olish: “do‘kon, “shifoxona”, “uchuvchilar”, “bolalar muassasasi” va shunga o‘xshashlar. Bolalar o‘yiniga tarbiyachining rahbarlik qilishi. O‘yin bolalarning qiziqarli ermagigina bo‘1ib qolmay, shu bilan bir qatorda u bolalarni rivojlantirish va tarbiyalashning muhim vositasi hamdir. Ammo o‘yin kattalar tomonidan tashkil etilib, unga rahbarlik qilingandagina ijobiy natija beradi. Pedagog bolalar o‘yiniga rahbarlik qilar ekan, quyidagi talablarga e’tibor berishi zarur: o‘yin mazmunining ta’lim-tarbiya beruvchi ahamiyatga ega bo‘lishi, aks ettirilayotgan narsalar haqidagi tasavvurlar to‘g‘ri va to‘la bo‘lishi, o‘yin harakatlariga faol, ma’1um maqsadga qaratilgan, ijodiy xususiyatga ega bo‘lishi kerak. Hamma va ayrim bolalarning qiziqishlarini e’tiborga olgan holda o‘yinga rahbarlik qilish, o‘yinchoqlarni va boshqa kerakli materiallardan maqsadga muvofiq foydalanish, bolalarning o‘yinda xayrixoh va xursand bo‘lishlarini ta’minlash lozim. Pedagog bolalar o‘yiniga rahbarlik qilar ekan, bola shaxsining hamma tomonlariga: ongiga, his-tuyg‘u1ariga, irodasiga, xulqiga ta’sir etishi va bundan bolalarni aqliy, axloqiy, estetik va jismoniy tomondan tarbiyalashda foydalanishi lozim. O‘yin jarayonida bolalarning bilimlari va tasavvurlari boyib, chuqurlashib boradi. O‘yinda u yoki bu rolni bajarayotib, bola o‘zining butun diqqatini o‘yinga qaratishi lozim. Bola o‘ynayotganda kishilar mehnati, ularning aniq harakatlari, munosabatlari to‘g‘risidagi tasavvuri yetarli emasligini sezib qoladi, buning natijasida kattalarga savol bera boshlaydi. Tarbiyachi bolalarning bunday savollariga javob berib, ularning bilimlariga aniqlik kiritadi, boyitadi. Tarbiyachi o‘yin orqali bolalarda ona-vatanga, o‘z xalqiga boshqa millat kishilariga ijobiy munosabatni shakllantiradi, mustahkamlaydi. O‘yin

orqali tarbiyachi bolalarda jasurlik, to‘g‘rilik, o‘zini tuta bilishlik kabi sifatlarni tarbiyalaydi. O‘yin bolalarda ijtimoiy axloqni, ularning hayotga, bir-biriga bo‘lgan munosabatini shakllantiruvchi o‘ziga xos maktabdir. O‘yinda bola kishilarning axloq-odob normalarini, mehnatga munosabatlarini bilib oladi. Tarbiyachi bolalar o‘yiniga rahbarlik qilayotib, ularni jamoa orqali ham tarbiyalab boradi. O‘yin jarayonida bolalar o‘z xohishlarini jamoa xohishi bilan kelishib olishga, o‘yinda o‘rnatiIgan qoidalarga rioya qilishga o‘rganadilar. Ammo o‘yinga to‘g‘ri rahbarlik qilinmasa, u noxush oqibatlarga ham olib kelishi mumkin. Tarbiyachi bolalarni jismoniy tomondan tarbiyalashda o‘yindan keng foydalanadi. Juda ko‘pchilik o‘yinlar bolalardan faol harakat qilishni talab etadi, bu esa o‘z navbatida organizmda modda almashinishini yaxshilaydi, qon aylanishini tezlashtiradi. Bundan tashqari faol harakat qilish bola gavdasining to‘g‘ri o‘sishini, harakatlari chiroyli bo‘1ishini ham ta'minlaydi. O‘yin orqali tarbiyachi bolalarda quvnoq kayfiyat yaratadi, ijobiy ruhiyat hosil qiladi, bu esa bolaning asab-ruhiy, jismoniy tarbiyasini yaxshilaydi. O‘yin bolalarga estetik tarbiya berish vositasi sifatida ham keng qo‘llaniladi. Bolalar tevarak-atrofdagi hayotni, voqelikni obrazlar, rollar orqali ham aks ettiradilar. O‘yinda bolalarning avval olgan taassurotlari orqali obraz yaratishlari - xayol juda ham katta ahamiyatga ega. Bolalar juda ko‘p o‘yinlarda avval o‘rgangan ashula, she’r, raqs, topishmoqlardan keng foydalanadilar. Bundan tarbiyachi bolalarda estetik did, zavqni tarbiyalashda foydalanadi. O‘yin vaqtini tanlay bilish ham muhim ahamiyatga ega. Nonushta bilan mashg‘ulot o‘rtasida bolalar o‘yiniga 8-10 daqiqa vaqt beriladi. Bunda bolalar ko‘pincha avval boshlagan o‘yinlarini davom ettiradilar. Sayrda bolalarning o‘ynaslılari uchun 1 soat -1 soat 20 minut vaqt ajratiladi. Kunduzgi uyqu va kechki nonushtadan keyin ham bolalar o‘yiniga vaqt beriladi. Bunda bolalar ko‘proq syujetlirolli o‘yinlarni, qurilish materiallari, qo‘g‘irchoqlar bilan, stol usti o‘yinchoqlari o‘ynashlari mumkin. Slıu bilan birga ermak o‘yinlardan ham foydalaniladi. Ammo o‘yin bilan ta’lim o‘rtasidagi bog‘liqlik bola ulg‘aygan sari o‘zgarib boracli. Kichik guruhda o‘yin ta’lim berishning asosiy shakli hisoblansa, katta guruhga borganda esa mashg‘ulotlarda ta’limning roli ortadi. Tayyorlov guruhiga borganda bolalarning o‘zlarida maktabdagi o‘qishga ishtiyoq uyg‘onib qoladi. Ammo bolalar uchun o‘yinning qadri yo‘qolmaydi, balki mazmuni o‘zgaradi. Endi bolalarni ko‘proq fikriy faollikni talab etuvchi o‘yinlar, sport tarzidagi o‘yinlar qiziqtira boshlaydi. Shunday qilib, pedagogika fani o‘yinga bola shaxsini har tomonlama shakllantirish vositasi va ular hayotini tashkil etish shakli, bolalar jamoasini shakllantirish vositasi deb qaraydi.

Bolalar o‘yinlarida tasvirlash vositalari. Bolalarning o‘ynashlari uchun ma’1um vositalar kerak. Rolli o‘yin1arda bolalar har xil vositalardan foydalanadilar, ulardan asosiylari quyidagilar: bolalarning o‘z harakatlari; o‘yinchoq va boshqa materiallar; so‘z. Bolalarning asosiy tasvirlovchi vositalari o‘zlarining harakatidir.

Masalan, bola ikki oyog‘ida sakrab quyonchaga taqlid qiladi. Ikki qo‘lini qimirlatib, pishillab parovoz bo‘ladi va h.k. Bolalarning ko‘p harakatlari qurish, yasash bilan bog‘liq bo‘1adi, ular soatlab parovoz, paroxod, elektrovoz quradilar, ularni o‘ziga o‘xshatishga urinadilar. Ko‘pincha qurish o‘yinning boshlanishi bo‘1ib xizmat qiladi. Taqlid vositasiga o‘yinchoq ham kiradi. O‘yinchoq bola harakatini to‘ldiradi, o‘ylagan obrazi va fikrini amalga oshirishga yordam beradi. Kiyimlar va ularning qismlari ham bolaning olgan rolini yaxshiroq bajarishga va uni yanada aniqroq ijro etishga imkon tug‘diradi. Bolalar o‘yin jarayonida ba’zi bir narsalarni xohlagan narsalari nomi bilan atab ham xuddi o‘sha xohlagan narsalarini faraz qilib juda yaxshi o‘ynaydi1ar, masalan, taomni “konfet”, qumni “shakar”, stulni “mashina” deb atashlari mumkin. So‘z yordamida bolalar qanday o‘yin o‘ynashlarini kelishib oladilar. So‘z yordamida bir-biri bilan muomalada bo‘lib, o‘z fikrlarini izhor etishadi. So‘z har xil taassurotlarni ifodalash imkonini beradi. Bolalar hamma vositalardan ko‘pincha bir vaqtda foydalanadilar. Aks ettiruvchi vosita qanchalik ko‘p bo‘lsa, o‘yin mazmuni shunchalik boyroq bo‘ladi hamda tevarak-atrofdagi voqealardan taassurot shunchalik to‘1aroq aks ettiriladi. O‘yin mazmunining rivojlanib borishi bilan murakkab jarayon bo‘lgan bolalar jamoasi ham shakllana boshlaydi. O‘yin bolalarning mustaqil faoliyati bo‘1gani uchun uning syujetini bolalar o‘z1ari o‘ylab topishadi va o‘zlari tashkil etishadi. O‘yinda bolalar o‘zlarining kichkina jamiyatning a’zosi deb hisoblashadi,o‘zaro kelishib harakat qilishga o‘rganishadi. Ijtimoiy tarbiya olayotgan sharoitda har bir bola o‘ynayotgan bolalar jamoasiga kira olishi, u yerda o‘z o‘rnini topa olishi va shu jamoada o‘rnashib olishi lozim. Tarbiyachilik yoshli bolalarda ularning narsalar bilan o‘ynay olishi, diqqatini shunga to‘p1ay olish qobiliyatini tarkib toptiradi. Bu boshqa bolalar bilan yonma-yon tinch o‘ynay olish malakasining shakllanishiga yordam beradi. Bolalar birgalikda o‘ynashga o‘tganlarida bir-birlari bilan ma’1um munosabat o‘rnatishlari lozim bo‘1adi. Xudda mana shu munosabat jamoatchilikni shakllantiradi. Bunga tarbiyachi bolalarni kelishib o‘ynashga o‘rgatish orqali erishadi. XI. 4. Ijodiy o‘yinlar turlari Ijodiy o‘yinlarda bolalarning tevarak-atrofdan olgan taassurotlari aks ettiriladi. Ijodiy o‘yin bolalarning mustaqil o‘yini bo‘lib, o‘yinning mazmunini ular o‘zlari o‘ylab topadilar. Bu o‘yinda bolalarning erkinligi, mustaqilligi, tashkilotchilik va ijodkorlik qobiliyatlari to‘laligicha namoyon bo‘ladi. Ammo o‘yinda hayotiy taassurotlar aynan aks ettirilmaydi, balki bolalar ongida qayta ishlab chiqiladi. Bu bolalarning o‘yin g‘oyasini yaratishlarida, uning mazmunini tuzib, tasvirlovchi vositalarni tanlashlarida va shunga o‘xshashlarda namoyon bo‘Iadi. Ijodiy o‘yin turlari: Syujetli-rolli o‘yin maktabgacha yoshdagi bolalarning asosiy o‘yin turlaridir. Syujetli-rolli o‘yin o‘z xususiyatiga ko‘ra aks ettiruvchi faoliyatdir. Tevarak-atrofdagi kattalar va tengdoshlarining hayoti va faoliyati bu o‘yin mazmuniga manba bo‘lib xizmat qiladi. Bolalarning tevarak-atrofdagi hayotdan, tengdoshlari, kattalar faoliyatidan olgan

taassurotlari ijodiy o‘yinda qayta ishlanadi, to‘1diriladi, sifat jihatidan o‘zgartiri1adi. Bolalarning bunday o‘yinlari tevarak-atrofdagi borliqni bilishning amaliy shaklidir. Bolalar o‘yinining o‘ziga xos tomoni unda tasvirlovchi vaziyatlarning mavjudligidir. Tasvirlovchi vaziyat bolalarga o‘yin jarayonida yuklangan rol va o‘yin syujetidan tashkil topadi va har xil buyumlardan foydalanishni ham o‘z ichiga oladi. O‘yinning syujeti bir-biriga hayotiy aloqador bo‘lgan qator voqea- hodisalar yig‘indisidir. Rol syujetli-rolli o‘yinnirıg asosiy zanjiri hisoblanadi. O‘yin bolada qanoatlanish, xursandchilik hissini paydo qiladi, shuning uchun bolani qiziqtirib, unda yaxshi kayfiyat uyg‘otadi, bola organizmidagi hayotiy faoliyatni yaxshilaydi. Bola o‘ynayotganda har xil harakatlar qiladi: yuguradi, sakraydi, tor joydan, ingichka taxta ustidan o‘tadi, engashadi, yuqoriga tirmashib chiqadi va hokazo. Bolaning aqliy tomondan rivojlanishi uchun ham o‘yin hatta ahamiyatga ega. O‘yin natijasida bolaning bilimi kengayib boradi. Rolli o‘yinlar bola kuzatııvchanligilıi, qiziquvchanligini, oilish doirasini rivojlantiradi, boyiiadi. O‘yinda bola o‘z oldiga maqsad qo‘yadi, bu boladan aql, idrok ishlatislıni talab qiladi, topag‘onlikka o‘rgatadi. O‘yin jarayonida juda ko‘p gaplashishga, tortishislıga, bahslashishga, aytib berishga to‘g‘ri keladi. Bolalar o‘zi yasayotgan narsalarini yaxshiroq yasash, qurish uchun juda ko‘p o‘ylab, fikrlashishlariga to‘g‘ri keladi. Bular hammasi bola tafakkuri va xayolining rivojlanishida muhim ahamiyatga egadir. Bola o‘z o‘yinida borliqni aks ettirib, olgan rolining mazmuni bilan bog‘liq bo‘lgan u yoki bu hissiyotni boshdan kechiradi. Masalan, Dilnoza ona-bola o‘yinida ona rolini o‘ynayotib, bolalarini ovqatlantiradi, kiyintiradi, ular bilan yaxshi munosabatda bo‘1ib erkalaydi, ular bilan gaplashadi, kitoblar o‘qib beradi. Bu o‘yin bolada muloyimlilik, g‘amxo‘rlik, e’tiborlilik kabi yaxshi hislarni uyg‘otadi. Rolli-syujetli o‘yin1arning o‘ziga xos xususiyati. Rolli o‘yinlarning boshqa o‘yinlarga nisbatan o‘ziga xos xususiyatga egaligi ularda syujet, rol va xayol qilingan vaziyatning mavjud bo‘lishidir. Bolalar biror narsa yoki voqea to‘g‘risida yetarlicha tasavvurga ega bo‘lgandagina syujet, fikr, yuzaga keladi. Masalan, bolalar "paroxod” o‘yinini o‘ynamoqchi bo‘lishdi. Bunga o‘yinning qanday borishi to‘g‘risida syujet kerak. Syujet bolalarning bilimiga bog‘liq bo‘ladi. Bolalarda avval g‘oya paydo bo‘1adi, keyin mazmun rivojlanadi. Ba’zan bolalar o‘yinning qanday borishini oldindan belgilab oladilar. Masalan, Afrikaga “bormoqchi” bo‘lsalar, sayohat vaqtida qilinadigan ishlarni oldindan belgilab oladilar. Bundan ko‘rinib turibdiki, rolli o‘yin jamoatchilik xususiyatiga ega, chunki bolalar bir-birlari bilan o‘zaro munosabatda bo‘ladilar. Rolli o‘yinda har bir bola o‘ziga olgan rolni bajaradi masalan, ona, haydovchi, tarbiyachi, enaga, san’atkor va hokazo. Rolli o‘yinlarda didaktik, qoidali – harakatli o‘yinlardagi singari qat’iy o‘rnatilgan qoida bo‘lmaydi. Bunda ko‘pincha bolalar o‘z xayol qilgan narsalari bo‘yicha harakat qiladilar. Masalan, “raketa tushib oyga uchadilar”, “paroxodda suzadilar”, “kasalni davolaydilar”. Ammo bolalarning xayollari bilan

o‘ynash1ari ularni real voqealikdan uzoqlashtirib yubormaydimi degan savol tug‘iladi, yo‘q, bolalar o‘zlari buning o‘yinIigini yaxshi biladilar. Slıu bilan birga bolalarning kechinmalari, hayajonlari, qilgan harakatlari hammasi rostakam, sidqidildan bo‘ladi. Masalan, “doktor” rolidaga bola kasal to‘g‘risida qayg‘uradi. O‘yin mavzusi bolalar olgan taassurotning kuchli, bolalarning qiziqishlari bilan belgilanadi. O‘yinda bolalar aks ettiradigan ijtimoiy-siyosiy voqealar bolalarning bilim doirasi va hayotiy tajribasining kengayib borishiga bog‘liq bo‘ladi. Rolli o‘yinlarining mazmuni va mavzusi o‘zgarishi bilan bir qatorda uning tuzilishi va o‘yin shartlari o‘zgaradi, bolalarning mustaqilligi va tashabbuskorligi ham o‘sib boradi. Avvalgi bolalar o‘z-o‘zicha alohida-alohida o‘ynaydilar. Sekin-asta rolli o‘yin1arning paydo bo‘lishi, o‘yinda kishilar o‘rtasidagi munosabatni aks ettirish birgalikda bajariladigan o‘yinni keltirib chiqaradi. Avvaliga katta bo‘lmagan guruhchalar 2-3 kishidan iborat bo‘lib o‘ynashadi, katta va tayyorlov guruhlariga kelib kattaroq jamoaga birlashadilar. O‘yinda har xil rollar orqali o‘zaro munosabatda bo‘lish bolalarda o‘rtoq1ik munosabatlarini shakllantirishga yordam beradi. O‘yinning tuzilishi va mazmuni o‘zgarishi bilan o‘yinchoqning roli va bolalarning unga nisbatan talabi ham orzgarib boradi va h.k. Bog‘cha yoshidagi bolalarda ijodiy o‘yinning rivojlanib borishi. Uch yoshdagi bolalarning o‘yinlari yangi tus oladi: bola qo‘g‘irchoqni va o‘zini kishilarning nomi bilan atay boshlaydi: masalan, bola mashina yasab uni boshqara boshlaydi. Kattalar undan sen kimsan, deb so‘rasa, “Haydovchiman” deb javob beradi. Yoki qizcha qo‘g‘irchog‘iga ovqat pishirayapti. “Sen kimsan?”– degan savolga “Men oshpazman” deb javob beradi. Bolalar o‘z o‘yin1arida sekin-asta murakkab bo‘lmagan syujetli o‘yinlarni o‘ynay boshlaydilar. Bunda asosan kundalik turmushda takrorlanib turadigan voqealar aks etadi. Bolaga ovqat berishadi, uxlashga yotqizishadi, mashinada tortishadi. Yana ovqat berishadi va uxlatishadi. Yoki qo‘g‘irchoq kasal bo‘lib qolsa, darrov uning qo‘li, oyog‘i bog‘lanadi, yolg‘ondakam dori beriladi. Uchinchi yoshning oxiriga kelib bola rol tanlay boshlaydi. “Men oyisiman”, “Men – vrachman” deb bular birdaniga enaga, tarbiyachi, doktor bo‘lib qolishi mumkin. Bola to‘rt yoshga o‘tganda syujetli-rolli o‘yin1ar ancha rivojlana boshlaydi. O‘yinlar mavzui har xil bo‘lib, boyib boradi. Bu yoshdagi bolalar o‘z o‘yinlarida oila, MTMni, avtobusda, tramvayda kelayotgan kishini aks ettiradilar. Tevarak-atrofni kuzatish natijasida tasavvurlari kengayadi, bu ularning o‘yin mazmuniga ta’sir etadi: bayramlar, do‘kon, transportning har xil turlarini aks ettira boshlaydilar. Ammo bu yoshda ular hayotdagi voqealar o‘rtasidagi bog‘liqliklarni hali tushunib yetolmaydilar. Bola besh yoshga qadam qo‘yganda undagi kuzatuvchanlik tafakkuri rivojlanganligi, bilim doirasi kengayganligi sababli o‘yin mazmuni ham murakkablashib boradi. Xayolning rivojlanib borishi orqasida ertak va hikoyalar mazmuni bo‘yicha murakkab bo‘lmagan o‘yinIarni o‘ynashadi. O‘yin mazmuni bilan bir qatorda bolalarda hislar ham rivojlanib boradi. Kundalik hayotga

nisbatan bolalarda hissiyot yuqori bo‘ladi. O‘yin birinchidan, xursandchilik bilan hamohang kechadi. Ikkinchidan, bolalar kattalarning hislarini o‘z o‘yinlarida aks ettiradilar. Katta maktabgacha yoshdagi bolalarda ijodiy o‘yin juda liam yaxshi rivojlanadi. Bu o‘yin1arda bolalar o‘zlari eshitgan, ko‘rgan voqealar, hikoyalar, kitoblar va boshqa manbalardan olgan bilim, malakalarini, his-hayajonlarini to‘la qo‘llay boshlaydilar. Bu yoshdagi bolalar o‘yinlarida berilgan ta'1im- tarbiyaning natijasi yaqqol ko‘ı inib, sezilib turadi. Bolalar kim bilan o‘ynashi to‘g‘risida va o‘yinning qanday borishi to‘g‘risida o‘zaro kelishib oladilar. O‘yin1ar uzoqroq davom etadigan bo‘lib boradi. Bitta o‘yinni uzoq vaqt, hatto bir necha kun o‘ynash mumkin, bunda har gal o‘yinga yangilik kiritib boriladi. Uzoq davom etadigan o‘yinlar maktabgacha yoshdagi bolalar o‘yinlarining yuqori bosqichi hisoblanadi. Katta maktabgacha yoshdagi bolalar o‘yinlariga to‘g‘ri rahbarlik qilib borilsa, ularning mustahkam jamoasi yuzaga kelib, u o‘z an’anasiga, o‘z qoidasiga ega bo‘1adi. Bolalarda birgalikda ijod qilish qobiliyati rivojlanadi, ular o‘rtoqlarining fikri bilan kelishadigan, fikriga quloq soladigan bo‘1ib boradi. Bolalar jamoasining shakllanishi uzoq vaqtni talab etadigan murakkab ishBolalar o‘rtasida murakkab munosabatlar yuzaga kela boshlaydi Har bir bolaning o‘ziga xos xususiyati yaqqol namoyon bo‘lib boradi. Bunda bolalar faol tashkilotchi, o‘ziga ishonadigan va aksincha, tortinchoq, indamaslarga bo‘linadi. Fao1 bolalar har doim o‘yinni o‘z xohishiga qarab tanlaydi, qiziqarliroq rolni talab etadi. Ular ba'zan o‘yinni buzishadi, o‘rtoqlarini xafa qilishadi, ammo tarbiyachining ta’siriga tez berilishadi. Ularning ijobiy xususiyatlari, sog‘lom qiziqishlari bo‘1adi, tarbiyachi mana shular asosida ularning ongi va hissiga ta’sir etadi. O‘yin mavzusi o‘zgarishi bilan o‘yinda qatnashuvchilarning ham o‘zaro munosabatlari o‘zgarib boradi. Kichkina bolalarning har biri o‘z holicha o‘ynasa, keyinchalik 2-3 kishi bo‘lib o‘ynay boshlaydi, o‘rta maktabgacha yoshga kelganda o‘ynovchilar soni ko‘payib, o‘rtoqlik munosabatlari tarkib topa boshlaydi, bunday munosabatlar o‘yinga mavzu tanlashda, rollar va o‘yinchoq1arni taqsimlashda yuzaga keladi. O‘yinning tuzilishi va mazmuni rivojlanib borishi bilan o‘yinchoqning roli va unga talab ham o‘zgarib boradi. Kichkina bolalar o‘yinini ko‘pincha o‘yinchoq belgilaydi. Bitta o‘yinchoq bir nechta vazifani bajarishi mumkin. O‘rta va katta maktabgacha yoshdagi bolalarda o‘yin to‘g‘risidagi fikr avval tug‘iladi. Keyin o‘ynay boshlaydi. O‘yinchoq o‘yin mazmuniga qarab tanlanadi.

Sahnalashtirilgan o‘yinlar. Sahnalashtirilgan o‘yinlar ijodiy o‘yinlar sirasiga kiradi. Unga ijodiy o‘yinning quyidagi asosiy: niyatning mavjudligi, roli va mavjud harakatlar, xayol qilingan vaziyatning va boshqa elementlarning uyg‘un1igi, bolalarning mustaqillik va o‘z-o‘zini uyushtira olish jihatari xos. Sahnalashtirilgan o‘yin badiiy asar asosida quriladi: o‘yin syujeti, rollar, qahramonlarning hatti- harakatlari, ularning nutqi asar matniga ko‘ra belgilanadi. Sahnalashtirilgan o‘yin bolalarning eshitgan asar yoki ertakdan olgan tasavvurlarini mustaqil ifodalash hamda mashq qilish imkonini beradi.

Bu o‘yin1ar bolalarda iroda, intizom, o‘z harakatlarini boshqalarning harakatiga muvofiq amalga oshirish kabi sifatlarni tarbiyalashda samarali vosita hisoblanadi. Sahnalashtirish bolalarni qayta so‘zlashga o‘rgatish usullaridan biridir. Ba’zi bir bolalarda badiiy asardan olingan parchani qayta so‘zlab berishga xohish ham, qiziqish ham bo‘lmaydi, ammo unga o‘yin usuli kirtilishi bilan bola asardagi rolga kirib, o‘sha asar mazmunini juda yaxshi aytib berishga harakat qiladi. Bunday o‘yinda bola o‘zini o‘sha asardagi qahramon o‘rnida his etib, uning sezgi, kechinmalari dunyosiga chuqurroq kirib boradi. Badiiy asarlarni qahramonlar tilida so‘zlab berish boladagi xayolni rivojlantirishga yordam beradi va asar qahramonida mavjud bo‘lgan ijodiy sifatlarni egallashga intiladi. Sahnalashtirilgan o‘yinda badiiy asarning g‘oyaviy mazmuni bolalar tomonidan chuqurroq anglab olinadi. Ertak yoki hikoyadagi mazmun bolalarga yaqin, ularning yoshi va qiziqishiga mos, tushunarli bo‘lib, bola unga kirishib ketgan taqdirdagina asardagi obraz va harakatlar to‘g‘ri aks ettiriladi. Shuning uchun u yoki bu badiiy asar bo‘yicha sahnalashtirilgan o‘yin o‘tkazishdan oldin tarbiyachi asarning mazmunini aks ettirishga yordam beradigan tayyorgarlik ishini o‘tkazishi kerak. Bu ish oldindan bir qator mashg‘u1ot va oryinlar o‘tkazish orqali amalga oshiriladi. Sahnalashtirilgan o‘yinga tayyorlanish uchun ma’1um bir vaqt ajratiladi va har bir mashg‘ulotda aniq masalalar hal etib boriladi. Masalan, tarbiyachi hazil she’r o‘qiyotib jonli nutqqa yaqinlashadi, bolalarga so‘zlarni, tovuslılarni qanday talaffuz etish kerakligini tushuntiradi. Qaytarishda esa tarbiyachi bolalardan so‘zlarni aniq, balandroq yoki past, sekinroq yoki tez talaffuz etishni talab etadi. Bu mashqlarda matnni eslab qolish uchun o‘tkaziladigan har bir mashg‘ulotda 5-6 daqiqadan vaqt ajratiladi. Bolalar “Sholg’om”, “Bo‘g‘irsoq”, “Tulki, xo‘roz va quyon” kabi ertakni sahnalashtirishni juda sevadilar. Ertak va hikoyalarni bolalar ko‘pincha o‘zlarining ijodiy rolli o‘yinlarida sahnalashtiradilar, bu o‘yinlarda tulki, sichqon, xo‘roz, quyon kabi personajlarni o‘yinlarda aks ettiradilar. Yozuvchilarning badiiy asarlarini ham bolalar sevib sahnalashtiradilar. Bolalar bilan suhbatlasha turib, tarbiyachi hikoya yoki ertak qahramonlarining o‘ziga xos xususiyatlarini aniqlashga harakat qiladi. Har xi1 she’r, ertak qahramonlarining o‘ziga xos xususiyatlari manashunday o‘rganiladi. Sahnalashtirish ishini quyidagi bosqichlar bo‘yicha o‘tkazish mumkin: 1-bosqich. Adabiyotlarni tanlash. Sahnalashtirish uchun adabiyot tanlaganda quyidagi talabga rioya qilish kerak: Ertak, hikoya yoki she’rda qatnashuvchilar ko‘p bo‘1ishi kerak.Asarda mazmun yaxshi bo‘lib qolmasdan, harakatlarning xili ham ko‘p bo‘1ishi kerak. Asar ifodali o‘qislıga ınos kelishi shart. Mazmuni qiziqarli bo‘lishi kerak. Asar bolalarning yoshiga mos kelishi kerak. 2-bosqich. Sahnalashtirish uchun tanlangan hikoya, she’r yoki ertakning mazmunini o‘qib berish yoki qo‘g‘irchoq, soya teatrida ko‘rsatish orqali tanishtiriladi. 3-bosqich. Eslab qolish. Asarni bolalar eslab qolishlari uchun uni qayta o‘qib berish, postanovka ko‘rsatish, rasmlar namoyish etish, didaktik o‘yinlardan

foydalaniladi. 4-bosqich. O‘yin qiziqarli o‘tishi va uzoq davom etishi uchun o‘yinga kerakli materiallar, kiyimlar tayyorlab berish va shu bilan birga to‘g‘ri rahbarlik qilish kerak. Bu ishni tarbiyachi bajaradi, katta guruhda esa tarbiyachi yordamida u bilan birgalikda bolalar bajarishadi. Tarbiyachi bir qancha ertakka doir rasmlar ko‘rsatadi. Guruhda shu yoshli bolalarga xos bo‘lgan ertaklar, hikoyalar ularga tanish bo‘lib qolgandan keyingina sahnalashtirish boshlanadi. “Sholg‘om”, “Bo‘g‘irsoq” kabi ertaklar sahnalashtiriladi. Tayyorlov guruhida bu ish davom ettiriladi. Sahnalashtirish uchun ertaklargina olinmasdan, badiiy asarlar, xususan, she’rlar ham olinadi. Sahnalashtirish o‘yinlariga guruhlariga qarab har xil rahbarlik qilinadi. Masalan, tarbiyachi o‘rta guruh uchun asosan harakatni aks ettiruvchi asarlar tanlaydi, katta guruh bolalari uchun esa asar qahramonlarining ancha murakkab munosabatlari, ularning kechinmalari, qayg‘ulari aks ettirilgan asarlar tanlanadi. Tarbiyachi bajarilgan ishning hisobini olib boradi. Bolalarga qaysi asar yoqqanini, ular ko‘proq qaysi asarni sahnalashtirishni yoqtirishlarini, qaysi bola topshirilgan rolni yaxshi ijro eta olganini, rollarni ijro etishda bolalarda qanday qiyinchiliklar vujudga kelganini yozib boradi. Mana shu asosda bo‘lg‘usi sahnalashtiriladigan o‘yinlar jonlantiriladi.

Konstruktiv o‘yinlari. Qurilish o‘yin1ari ham ijodiy o‘yinlar sirasiga kiradi. Ularda bolalar atrof-muhitdagi buyumli dunyo haqidagi taassurotlarini aks ettiradilar, mustaqil tarzda turli narsalar yasaydilar, bunyod etadilar. Qurish-yasash o‘yin1arida bir xi1 buyumlarning boshqalari bilan almashinishi yuz beradi. Kichik va o‘rta guruh yoshidagi bolalarda qurilish o‘yinlari rolli o‘yin1ar bilan bog‘lanib ketadi. Qurilish o‘yinlari samarali faoliyat hisoblanib, bolalarda bunyod etilgan inshootni mavjud buyum va narsalar, inshootning qurilishiga asos 205 bo‘lib xizmat qilgan tasavvur bilan qiyoslash, taqqoslash ko‘nikma1arini shakllantirishga imkon beradi. U bolalarda kuzatuvchanlikni rivojlantirishga yordam beradi. Qurilish materiallari turli xildagi geometrik shakllardan iborat. Bolalar har bir shaklning o‘ziga xos xususiyatlarini yaxshi bilib olishlari lozim, aks holda hech qanday qurilishni amalga oshirib bo‘1maydi. Bolalar qurgan narsalar amaliy jihatdan yaroqli bo‘lishi va ulardan o‘yinda foydalanish uchun konstruktorlik malakasiga ega bo‘1ish kerak. Bundan bolalarga qurishning asosiy usullarini o‘rgatish zarurligi kelib chiqadi. Qurilish materiallari bilan o‘ynaladigan o‘yinlarda bolalarning texnikaga qiziqishi ortadi, kuzatuvchanligi rivojlanadi, ular geometrik jismlarning eng oddiy xususiyatlari bilan tanishadilar. Qurilish o‘yinlari bolalarning mehnat faoliyatiga yaqin bo‘1ib, ularni mehnatga tayyorlaydi. Qurilish materiallari bilan o‘yna1adigan o‘yinlar bolalar tafakkurini rivojlantiradi: kuzatilayotgan inshootlarning o‘ziga xos xususiyatlarini ajratib ko‘rsatish, tahlil va sintez qilishga, solishtirishga, o‘xshash va farq qiladigan tomonlarini aniqlashga majbur etadi, vazifalarni to‘g‘ri hal qilishga o‘rgatadi. Qurilish materiallari bilan o‘ynaladigan o‘yinIar geometrik jismlarning xususiyatlarini, ular bilan ishlashni, fazoviy nisbatlarni

(uzoq-yaqin, baland-past, o‘ng-chap, uzun-qisqa, keng-tor) amalda olib borishga yordam beradi. Bunday o‘yin orqali bolalarni maktabdagi politexnika ta'limiga tayyorlash vazifasi ham amalga oshiriladi. Bolalar qurish-yasash jarayonida bir jamoaga birlashadilar, natijada ularning nutqlari rivojlanadi. Qurilish materiallari bilan o‘ynash bolalarning ma’naviy dunyosiga ham ta’sir etadi: bolalar bilan biron inshootni kuzata turib, davlatimizning xalq farovonligi to‘g‘risida g‘amxo‘rlik ko‘rsatayotganligini tushuntiradi. Qurilish materiallari bilan o‘ynash bolalarda mehnatsevarlik, mustaqillik, tashabbuskorlik, ishga javobgarlikni his etgan holda munosabatda bo‘lishi hamda irodaviy sifatlarni tarbiyalaydi. O‘yinning qizig‘i shundaki, u bolalarga zo‘r zavq-shavq bag‘ishlaydi. Bolalarni ba'zi bir qurilish inshootlari bilan tanishtirish orqali estetik tarbiya vazifalari ham amalga oshiriladi. Bolalarda estetik hissiyotni tarbiyalash uchun faqat bitgan qurilish inshootini kuzatish yetarli emas, balki qurilishning borishi, ishning tashkil etilishini kuzatish, bunda bolalarning o‘zlarini qatnashtirish muhim ahamiyatga ega. O‘yin uchun sharoit yaratish. Qurilish materiallari bilan o‘ynashni rivojlantirish uchun unga muvofiq shart-sharoit yaratish zarur. Qurilish materiallari butun guruh bolalarining bir vaqtda o‘ynashi uchun yetarli bo‘1ishi kerak. Guruh xonasida qurilish materiallarini saqlaydilar, uni quradigan va bir necha kungacha saqlab qolishning iloji bo‘lgan joy bo‘lishi kerak. Qurilish materiallari uchun har bir detalga alohida xonachalari bo‘lgan g‘i1dirakli shkaf bo‘lgani yaxshi. Uni bolalar xohlagan tomonlariga surib olib boradilar. Shkaf ichini tartibli saqlash zarur. Qurilish materiallari saqlanadigan burchakda mayda o‘yinchoq1ar, o‘yinchoq1i odamlar, qushchalar, hayvonlar, transport bo‘1ishi mumkin. Bolalar ning o‘zlari o‘yinchoq yasashlari uchun har doim kerakli material bo‘lishi zarur. Ona o‘lkamizni, uning poytaxti Toshkentni, transportning har xi1 turlarini tasvirlovchi albomlar, fotosuratlar bo‘lishi kerak. Qurilish materiallaridan barpo etilgan inshootlar namu- nalari tasvirlangan albom. Qurilish jarayonini, binolarning bezatilishini bolalar bilan kuzatish kerak.

Qurilish usullarini o‘rgatish lozim. Qurilish materiallaridan ishlangan buyumlarni bir necha kungacha hatto undan ko‘proq muddat saqlash kerak. Qurish-yasashga o‘rgatishning asosiy usullari. Bolalarni qurishyasashga o‘rgatish uchun tarbiyachi turli xil usullarni qo‘1laydi: Tarbiyachi har bir harakatni tushuntirgan holda qurib ko‘rsatadi. Tarbiyachi biron narsani o‘zi qurib ko‘rsatadi va bunga kirgan har bir qismni tahlil qilib beradi. Tayyor qurilish namuna sifatida ko‘rsati1adi. Qurish-yasashning ayrim qismlarini ko‘rsatadi (tomini yasashni, qanday yopish kerakligini, biror detalni qaysinisi bilan almashtirish mumkinligini tushuntiradi). Tarbiyachi ataylab chala qiirib qo‘yi1gan qurilishni bolalarga qurib bitkazishni taklif qiladi. Nima uchun qurish lozimligini, tining mavztisini aytadi. Har kim xohlagan mavzuda qurishni taklif qiladi. Tayyor qurilishni: u qanday qismlardan iborat ekanligini, nimalar, qanday detallar ishlatilganini tahlil qilib beradi.

3-MAVZU. TERAPIYALAR ORQALI BOLALARNI KORREKSIYA QILISH
(2 soat amaliy mashg‘ulot)

Mashg‘ulotning texnologik xaritasi

O‘quv bloki	Umumkasbiy ko‘nikmalarni rivojlantirish				
O‘quv modul	Maktabgacha yoshdagi bolalar psixologiyasi				
Mavzu	Terapiyalar orqali bolalarni korreksiya qilish				
Davomiyligi	80 daqiqa				
Mashg‘ulotning maqsadi	Turli terapiya usullari orqali bolalarning rivojlanishidagi nuqsonlar, qiyinchiliklar va ijtimoiy-psixologik muammolarini aniqlash hamda ularni samarali korreksiya qilish metodlarini ishlab chiqish va amaliyotga tadbiq etishdir. Shuningdek, maqsad bolalarning shaxsiy, emotsional, kognitiv va ijtimoiy rivojlanishini qo‘llab-quvvatlash, ularning o‘z-o‘zini boshqarish va muloqot qilish ko‘nikmalarini mustahkamlash hamda o‘quv jarayonida samarali moslashuvini ta’minlashdan iborat.				
Mashg‘ulot bosqichlari	**Faoliyat tavsifi**	**Vaqt, daqiqa**	**Metodlar**	**Zarur jihozlar**	**Natija**
1. Tashkiliy qism	Salomlashish Maqsad va reja bilan tanishtirish Mashg‘ulotning dolzarbligini asoslab berish	5	Suhbat, tushuntirish	2- va 3-slayd	O‘qituvchilar mashg‘ulotga tayyor bo‘lishadi.
2. Kirish mashqi (Muzyorar)	- O‘rganish nima? O‘qituvchilarning ***ta’lim olish-o‘rganish hamda ta’lim berish-o‘rgatish*** haqidagi qarashlari ularning o‘qitishga bo‘lgan yondashuviga qay darajada ta’sir ko‘rsatishi haqida fikr-mulohaza bildirishlari va fikrlarini asoslab berish uchun imkoniyat yaratish. -	10	Muammoli vaziyat yaratish, muhokama	4-slayd	Mavzuga munosabati va mazmuniga qiziqish uyg‘onadi va ishtirok etishga rag‘batlanadi.

3. Nazariy qism Interactive ma’ruza	Asosiy ta’lim nazariyalari va asoschilari haqida qisqacha ma’lumot berish. Slaydlar yordamida mavzuni ochib berish uchun quyidagi savollardan foydalanish: ***Rasmda tasvirlangan olimlar kim? Ular insonni ta’lim olishi bo‘yicha qanday g‘oyalarni ilgari surganligini bilasizmi yoki eslay olasizmi?*** Ta’lim nazariyalari tushunchasi qanday ma’noni anglatadi?	15	Taqdimot, ko‘rgazmali tushuntirish	5-10-slaydlar	O‘qituvchilar asosiy ta’lim nazariyalari mazmun-mohiyatini nazariy jihatdan o‘rganadi.
4. Amaliy mashg‘ulot “Jigsaw” o‘qish mashqi	Amaliy mashg‘ulot jarayoni: - Ishtirokchilarni mavzu bo‘yicha kengroq ma’lumot olishlariga imkon yaratish uchun **4 ta guruhga** ajratish: 1-gr. - Bixeviorizm 2-gr - Kognitivizm 3-gr - Konstruktivizm 4-gr -Ijtimoiy-madaniy nazariya - asosiy ta’lim nazariyalari bo‘yicha ma’lumot beruvchi matn bilan ishlash; - har bir guruh o‘z guruhida matnni o‘qib, asosiy tushunchalar va g‘oyalarni aniqlab, tahlil qiladilar - guruh taqdimoti: ma’lumotlar va	30	Kichik guruhda ishlash, Hamkorlikda ishalsh, Tanqidiy fikrlash	1A, !B, 1C va 1D tarqatmalar	O‘qituvchilarda tanqidiy fikrlash, hamkorlikda ishlash va o‘z fikrini asoslash bo‘yicha amaliy ko‘nikmalar hosil qilishlariga imkon yaratiladi.

	vaziyatlarni muhokama qilish				
5. Taqqoslash mashqi	Asosiy ta'lim tazariyalarini amaliyotga samarali tatbiq etish yo'llarini yanada aniqlashtirish uchun sinfda bajariladigan mashq va faoliyat turlari bilan tanishib, ularga mos nazariyalarni taqqoslash va fikrini asoslash bo'yicha fikr-mulohazalar olish	10	Suhbat, muhokama, tahlil	2-tarqatma	O'qituvchilar o'z tajribalarini o'rtoqlashadi va yangi g'oyalarni o'zlashtiradi.

1 – Tarqatma material. Taqqoslash mashqi

Quyida berilgan sinfda bajariladigan mashq va faoliyat turlarida qaysi o'rganish nazariyalari aks etgan?

Sinfda bajariladigan faoliyat turlari va mashqlar	**O'rganish nazariyalari**
O'tilajak mavzuni qismlarga bo'lib o'qitish	
Tadqiq qilish va kashf etishni rag'batlantiruvchi topshiriqlar	
O'qituvchilarning o'quvchilar bajarishi kerak bo'lgan strategiyalarni modellashtirishi (namuna tarzida ko'rsatishi) va o'quvchilarning o'qituvchilar orqasidan qaytarishi	
Ilgari o'zlashtirilgan bilimlarni faollashtirish	

Mashq qilish va takrorlash	
Savollar qo‘yish va ularga javob izlashga asoslangan yondashuvlar	
Havozalash strategiyalar va texnikalari	
Rag‘bat va oqibatlar keltirilgan aniq belgilangan tartib-qoidalarni belgilash	

Terapiyalar orqali bolalarni korreksiya qilish

Bolalarning rivojlanishidagi ayrim qiyinchiliklar yoki ijtimoiy-psixologik muammolar ularning o‘rganish va muloqot jarayoniga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Shu sababli, maktabgacha va boshlang‘ich yoshdagi bolalar uchun turli terapiya usullaridan foydalanish ularning rivojlanishini qo‘llab-quvvatlash va muammolarni bartaraf etishda muhim vosita hisoblanadi.

Terapiya orqali bolalarni korreksiya qilish – bu bolaning kognitiv, emotsional, ijtimoiy va nutq rivojlanishidagi kamchiliklarni aniqlash, ularni bartaraf etish va shaxsiy rivojlanishni rag‘batlantirish jarayonidir. Ushbu jarayonda psixologlar, logopedlar, pedagoglar va ota-onalar birgalikda faoliyat yuritadilar. Terapiya usullari bolalarning individual xususiyatlariga, yoshiga va rivojlanish darajasiga mos ravishda tanlanadi.

Korreksiya terapiyalari turlicha bo‘lib, ular orasida emotsional terapiya, nutq terapiyasi, ijodiy va san’at terapiyalari, sensor-motor terapiya va ijtimoiy ko‘nikmalarni rivojlantirishga qaratilgan mashg‘ulotlar mavjud. Masalan, nutq terapiyasi orqali bolalar talaffuz, so‘z boyligi va muloqot ko‘nikmalarini rivojlantiradi. Sensor-motor terapiya bolalarning harakat koordinatsiyasini va jismoniy rivojlanishini yaxshilaydi. Ijodiy terapiya bolalarning fantaziyasi, ijodiy fikrlash va hissiy rivojlanishini qo‘llab-quvvatlaydi.

Terapiya jarayonida individual va guruh mashg‘ulotlari birgalikda qo‘llanadi. Individual mashg‘ulotlar bolaning o‘ziga xos ehtiyojlariga qaratilgan bo‘lsa, guruh mashg‘ulotlari ijtimoiy ko‘nikmalarni rivojlantirish, hamkorlik va muomala qilish qobiliyatini mustahkamlashga xizmat qiladi. Tarbiyachilar va psixologlar terapiya davomida bolalarning javoblarini kuzatib boradi, ularga rag‘bat berib, muvaffaqiyatlarini mustahkamlaydi va zarur hollarda qo‘shimcha maslahatlar beradi.

Nazariy jihatdan, terapiya orqali korreksiya qilish usullari Vygotskiy, Piaget va boshqa zamonaviy psixologlarning yondashuvlariga tayangan holda amalga oshiriladi. Vygotskiy bolalarning ijtimoiy muhit va muloqot orqali rivojlanishini ta’kidlagan bo‘lsa, Piaget kognitiv bosqichlarni va individual xususiyatlarni inobatga olish

zarurligini koʻrsatadi. Montessori metodikasi esa mustaqil faoliyat va oʻzini rivojlantirishni ragʻbatlantiradi.

Art-terapiya orqali bolalarni ruhiyatini oʻrganish. Art-terapiya (san'at terapiyasi) – bu san'at asarlarini yaratish va tasvirlash orqali odamning ruhiy holatini oʻrganish va sogʻlomlashtirish usulidir. Bu metod bolalarning ichki dunyosini tushunish va ruhiy holatini yaxshilash uchun samarali vosita boʻlib xizmat qiladi. Artterapiya orqali bolalar oʻz his-tuygʻularini ifodalash, oʻzini anglash, muammolarni hal qilish va psixologik muammolarni yengish imkoniyatiga ega boʻladilar.

Art-terapiyaning asosiy tamoyillari. Art-terapiya asosan quyidagi tamoyillarga asoslanadi:

• San'atning ifodaloviy kuchi: San'at asarlari odamning ichki holatlarini, histuygʻularini va psixologik holatini tasvirlashning kuchli vositasi hisoblanadi.

• Ruhiy ifoda: San'at yordamida bolalar oʻzlarining fikr va hissiyotlarini soʻzsiz ifodalashlari mumkin, bu esa ular uchun oʻzlarini tushunish va boshqalar bilan aloqaga kirishishning yangi usulini yaratadi.

• Jarayonning ahamiyati: Art-terapiyada asosiy diqqat jarayonning oʻziga qaratiladi. Bu yerda natijalar, ya'ni san'at asarining sifatidan koʻra, bolalarning oʻyin, tasvirlash va yaratish jarayonida qanday hissiyotlarni boshdan kechirishi muhim.

2. Art-terapiyaning bolalarning ruhiyatini oʻrganishdagi oʻrni Bolalar koʻpincha oʻz hissiyotlarini yoki ichki dunyosini soʻz orqali ifodalashda qiynalishadi. Art-terapiya ular uchun oʻz his-tuygʻularini ochib berishning muhim vositasiga aylanishi mumkin. Art-terapiya orqali bolalar ruhiy holatini oʻrganishda quyidagi jihatlar muhim ahamiyat kasb etadi:

a) Ichki holatlarni ifodalash San'at asarlari bolalarning ichki dunyosini ifodalashda yordam beradi. Masalan, bolalar rassomlik, musiqiy yoki boshqa san'at turlari yordamida oʻzlarining qoʻrquv, gʻazab, baxt yoki xafa boʻlish kabi hissiyotlarini tasvirlashlari mumkin. Boshqa tomondan, ular oʻzlarining baxtli yoki salbiy tajribalari, oilaviy muammolarini va jismoniy yoki emotsional ogʻriqlarini ham san'at orqali ifodalashlari mumkin.

b) Hissiy barqarorlikni rivojlantirish Art-terapiya yordamida bolalar oʻzlarining hissiyotlarini yaxshiroq boshqarishni oʻrganadilar. Masalan, san'at jarayonida bolalar stressni kamaytirish, ichki konfliktlarni tinchlantirish, oʻzlarini ifodalash va ijobiy energiya hosil qilishni oʻrganadilar. Shu bilan birga, ular oʻzlarining qalbidan kelgan xursandchilik yoki qaygʻu kabi hislarni boshqalar bilan boʻlishishni oʻrganadilar.

c) Oʻzini anglash va oʻziga boʻlgan ishonchni oshirish Art-terapiya orqali bolalar oʻzlariga boʻlgan ishonchini oshirishlari mumkin. San'at asarlarini yaratishda bolalar oʻz kuchlarini va ijodiy salohiyatlarini ochib koʻrishadi. Bu oʻz navbatida ularning oʻziga boʻlgan ishonchini va ijtimoiy aloqalarini mustahkamlaydi. Shuningdek, bolalar

o‘zlarining kuchli va zaif tomonlarini aniqlash orqali o‘zlarini yanada yaxshiroq anglash imkoniyatiga ega bo‘ladilar.

d) Ruhiy muammolarni aniqlash Art-terapiya yordamida bolalar o‘zlarining ruhiy muammolarini aniqlashda yordam beradi. Masalan, bolalar rassomlik, kollaj, skulptura yoki boshqalar yordamida o‘zlarini qanday his qilayotganliklarini tasvirlashlari mumkin. Ularning yaratgan san'at asarlari o‘zgarishlarni, tashvishlarni yoki qo‘rquvlarni ko‘rsatishi mumkin. Psixolog yoki terapevt bu san'at asarlarini tahlil qilib, bolalarning ruhiy holati va ularning muammolari haqida ma'lumot oladi.

e) Xavf-xatar va travmalarga qarshi kurashish Art-terapiya yordamida bolalar travmatik tajribalarga, masalan, ota-onalarining ajralishiga, oilaviy zo‘ravonlikka, o‘lim yoki boshqa shaxsiy yo‘qotishlarga nisbatan o‘zlarini qayta tiklashlari mumkin. San'at yaratish jarayoni bolalarga bu og‘riqli his-tuyg‘ularni xavfsiz tarzda chiqazish va engish imkoniyatini beradi. Shu bilan birga, san'atning terapiya sifatida ishlatilishi bolalarni psixologik travmalardan xalos qilishga yordam beradi.

3. Art-terapiyaning turli usullari Art-terapiya jarayonida turli xil san'at usullari ishlatiladi. Har bir usul o‘ziga xos rivojlantiruvchi va terapetik funksiyaga ega.

• Rassomlik (Chizish, bo‘yash, rangli qalamlar): Bolalar o‘z hissiyotlarini vizual tarzda ifodalash imkoniga ega bo‘ladilar. Chizish jarayonida bolalar o‘zlarining muammolarini tushunishga va tuzatishga yordam beruvchi ramzlar yaratishadi.

• Kollajlar (Yelimli rasmlar): Kollaj yaratish bolalar uchun o‘zlari haqida yangi tushunchalar yaratishga yordam beradi, chunki u bu jarayonda turli qismlarni birlashtirib, yangi ko‘rinish yaratishadi.

• Skulptura va haykaltaroshlik: Kengaytirilgan makonlarda ishlash bolalarga o‘zlarini kengroq va erkin his qilish imkoniyatini beradi. Bu usul bolalarga hissiyotlarni uch o‘lchovli shakllarda ifodalashni o‘rgatadi.

• Musiqa va ritmik o‘yinlar: Musiqa orqali bolalar o‘zlarining ichki holatlarini ifodalash, tinchlanish yoki baxtni his qilishlari mumkin. Bu usul hissiy holatlarni o‘rganish va ifodalash uchun samarali vosita hisoblanadi.

5. Art-terapiyaning bolalar ruhiyatiga ta'siri Art-terapiya bolalar ruhiyatiga turli jihatlarda ta'sir ko‘rsatadi:

• Emotsional holatni yaxshilash: Bolalar san'at yordamida o‘zlarini yaxshi his qilishadi, bu esa ularning ruhiy holatlarini mustahkamlashga yordam beradi.

• Stressni kamaytirish: Art-terapiya, ayniqsa, stress va tashvishlarni kamaytirish uchun juda samarali hisoblanadi. San'at bilan shug‘ullanish bolalarning anglash va stressni boshqarish qobiliyatlarini oshiradi.

• Hissiy va psixologik muammolarni hal qilish: Art-terapiya orqali bolalar o‘z hissiyotlarini yaxshiroq anglashadi va ularni boshqarishni o‘rganadilar. Bu esa ular uchun muhim bir psixologik yordamdir.

Ertak terapiyasi maktabgacha yoshidagi bolalarning psixologik xavfsizligini shakllantirish usulllari. Atrof muhit va maktabgacha yoshidagi bolalarning psixologik xavfsizligi muhofazasi nafaqat, davlat, jamiyat, balki har bir fuqaroning vazifasidir. Shunday ekan maktabgacha ta'lim va maktab yoshidagi bolalarning muassasalarida ta'lim olayotgan bolalarning bolalik davridan atrof-olamni anglash, uni muhofaza qilish, unga nisbatan ijobiy munosabatni shakllantirish, atrof muhitni iflos qilmaslik va psixologik xavfsizligini shakllantirish haqida kompetensiyaviy yondashuvni amalga oshirishda «ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo‘yilgan davlat talablari» hamda «ilk qadam» davlat o‘quv dasturida belgilangan vazifalar amalga oshiriladi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016 yil 29 dekabrdagi «2017-2021 yillarda maktabgacha va maktab ta'lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g'risida»gi farmoni ijrosini ta'minlash maqsadida maktabgacha yoshdagi bolalarni har tomonlama maktab ta'limiga tayyorlash darajasini tubdan yaxshilashda, atrof-olamga bo‘lgan ijobiy munosabatni shakllantirish, ongli idrok qilish, borliqni xis qilishda bolalarni har tomonlama intellektual, axloqiy, estetik va jismoniy rivojlantirish uchun shart-sharoitlar yaratishni avvalo oiladan boshlab maktabgacha ta'lim muassasalarida davom ettirishni taqozo etmoqda. Kengroq mushohada yuritadigan bo‘lsak, millat barkamolligi, Vatan taraqqiyoti farzand tarbiyasi bilan bog'liqdir. Ertak terapiya bu bolani ertaklar orqali tarbiyalash, psixologik xavfsizligi shakillantirish va davolash metodidir. Bu boradagi ishlarni amalga oshirishda ota-onaning, o‘qituvchilarning va psixologlarning o‘rni muhimdir. O‘qituvchilarning kasbiy faoliyatining o‘ziga xos xususiyati shundaki, ular o‘quvchilarga ta'lim va tarbiya berish jarayonini tashkil qilish va boshqarishda tashqi ta'sir sub'ektiga aylanadi. Shuning uchun ular o‘zlarining funktsional majburiyatlarini bajarishda ta'lim jarayoni orqali uzatiladigan ijtimoiy qadriyatlarni takror ishlab chiqarishga yordam beradigan maxsus sharoitlarni yaratishlari kerak. Ammo shuni ta'kidlash kerakki, bularga nafaqat yosh avlodning davlat ta'lim standartlariga mos keladigan yuqori darajadagi ta'lim darajasi, balki ularning sog'lig'i holati ham kiradi. Afsuski, oxirgi yillardada nafaqat maktab yoshidagi bolalar orasida kasallanish, balki ularning o‘lim darajasi ham oshdi. Bu o‘quv jarayonida o‘quvchilarning sog'lig'ini saqlash va mustahkamlash uchun yanada samarali o‘qitish usullarini joriy etish zarurligini belgilaydi. Maktab yoshidagi bolalarning psixologik xavfsizligini shakllantirish usullaridan biri bu ertak terapiyasi bo‘lib, uning asosiy yo‘nalishi ma'naviy rivojlangan, mustaqil shaxsni shakllantirish, uning ahamiyatini anglash va sog'liqni saqlashning aqliy, ma'naviy va ijtimoiy tarkibiy qismlarini saqlab qolishdir, bu bolaning umumiy rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko‘rsatadigan jarayondir. Ilmiy va pedagogik adabiyotlarda ertak terapiyasi usulining shaxsning ichki dunyosiga ta'siri muammolarini o‘rganishga qaratilgan ertak terapiyasi sohasida tadqiqotlar mavjud (V.Belyanin, N.Berkovskaya, E.Bern, I.Vachkov,

A.Gnezdilov, T.Grabovskaya, Ya.Deikovsky, A.Zaporojets, T.Zinkevich-Evstigneeva, Ya.Kolominskiy, A.Kulchiskaya, N.Rubakin, D.Kudzilov, M.Erikson va boshqalar.). Ertaklarning odamning ongsizligiga ta'siri E.Bern, 3.Freyd, E.Fromm, K.Yung kabi mashhur psixologlar tomonidan qayd etilgan. Bundan tashqari Respublikamiz olimlaridan Ahmedova Z. «Ertak terapiya», Kadirova u.T. «Ertak terapiya» mutolaa madaniyatini yuksaltiradi» kabi maqolalarida ertak terapiya haqida tadqiqotlar olib borgan. Maqolaning maqsadi—tadqiqotning nazariy tahlili asosida maktab yoshidagi bolalarning psixologik xavfsizligini shakllantirish usuli sifatida ertak terapiyasining mohiyatini aniqlash. «Ertak terapiyasi» tushunchasining usul sifatida ta'rifi 1997 yilda T.D. Zinkevich Evstigneeva tomonidan berilgan. Uning ta'rifiga ko'ra, «ertak terapiyasi» - bu ruhning ma'naviy yo'li va insonning ijtimoiy realizasiyasi haqidagi bilimlarni uzatish usullari to'plami, insonning ma'naviy tabiatiga mos keladigan ta'lim tizimidir. Vrach-terapevt A.V.Gnezdilov ertak terapiyasini bolalarning psixologik xavfsizligini shakllantirish usuli sifatida ko'rib chiqadi va «ertak terapiyasi-bu «eslash» va bolaga uyg'un dunyoqarashni qaytarish jarayoni deb hisoblaydi. I.Vachkovning so'zlariga ko'ra, ertak maktab yoshidagi bolalarning psixologik xavfsizligini shakllantirish usuli sifatida ikkita muhim vazifani hal qilishga imkon beradi:

1. «Oyna» ning vazifasi. Ertak bolaga o'zini ko'rishga, o'zi bilan uchrashishga yordam beradi, shuning uchun o'z-o'zini anglashni rivojlantiradi va shaxsiy makonini uyg'unlashtirish imkoniyatini beradi. Masalan Zumrad va qimmat obrazlari.

2. «Kristal» ning vazifasi. Ertak terapiyasi tufayli bola atrofdagi dunyoni va uning atrofidagi odamlarni yangicha ko'ra oladi, shuning uchun odamlar va umuman dunyo bilan yangi, konstruktiv munosabatlar o'rnatadi. I.Vachkovning so'zlariga ko'ra, ertak terapiyasining usul sifatida asosiy afzalligi shundaki, har qanday ertakning yadrosi metafora hisoblanadi. Metafora - ertak terapiyasining psixologik ta'sir vositasi bo'lib xizmat qiladi. Metaforaning aniqligi va mukammalligi tuzatish usullarining samaradorligini belgilaydi. Ushbu psixokorrektsiya usuli xayoliy hikoyaning murakkab muammolarni hal qilishning yashirin ma'nosini anglatishiga asoslanadi.

Ertakning psixikani oddiy, ammo chuqur arxetipik vaziyatlarni takrorlash va ijro etish orqali «davolash» qobiliyati ertak syujetining ko'p so'zliligiga asoslangan bo'lib, unda ongli va ongsiz ravishda tashkil topgan inson psixikasining psixoanalitik tekshiruviga mos keladigan bir necha darajadagi tahlillarni ajratish mumkin (Nartova-Bochaver, 1996). Ertaklar bolaning sezgirligini, mehr-muhabbatni rivojlantirishga yordam beradi, bolaning hissiy va ixtiyoriy rivojlanishini boshqariladigan va maqsadga muvofiq qiladi, deb ta'kidlaydi.

Bolalarning psixologik xavfsizligini shakllantirishda ertak terapiyasi usulining xususiyatlarini ko'rib chiqing (B.M.Kiseleva, 2006):

1. Ertakning informatsion tarkibi-bola yaratadigan ertakni tahlil qilish orqali o‘qituvchi uning hayoti, hozirgi holati, qiyinchiliklarni engish usullari, dunyoqarash pozitsiyalari haqida ma’lumot oladi;

2. Ertakning ekologik xavfsizligi-bu kundalik hayotda emas, balki dramatik haqiqatdaligida; bola ham, o‘qituvchi ham hissiy jihatdan himoyalangan. Shunday qilib, «yonish» xavfi kamayadi va bolaning terapevtik ta’sirga bo‘lgan ishonchi oshadi;

3. Ertakning cheksizligi-ertakni to‘ldirish, almashtirish, boyitish, bola (kattalar) o‘z-o‘zini cheklashni engib, o‘z hayotini to‘ldiradi, o‘zgartiradi, boyitadi;

4. Ertakning hissiyligi-bola o‘zining ijtimoiy immunitetini mustahkamlab, ijobiy hissiy zaryadni to‘playdi;

5. Ertakning donoligi-ertak orqali o‘qituvchi bolaga muammoli vaziyatdan chiqishning yangi usullari va algoritmini etkazishi mumkin;

6. Yosh cheklovlarining yo‘qligi-ertak bolaning individual tarixidagi bo‘shliqlarni bajaradi va uni umuminsoniy ma’lumotlar bilan to‘ldiradi. Funktsiyalarga qarab, ertaklarning quyidagi turlari ajratiladi: diagnostik, korreksiyalovch va rivojlantiruvchi.

Buning uchun ertaklarning quyidagi toifalari qo‘llaniladi: badiiy, ular o‘z navbatida muallif va xalq, didaktik, psixoterapevtik va psixokorrektsiyaga bo‘linishi mumkin. Agar dastlabki ikki tur maktabdagi darslarda doimiy ravishda ishlatilsa va o‘quv va tarbiyaviy vazifalarni amalga oshirishga qaratilgan bo‘lsa, ikkinchisi faqat mutaxassislar tomonidan amalga oshirilishi kerak, ammo ularning elementlari o‘qituvchi darslarida, psixologning aniq nazorati va uning dastlabki maslahati ostida ishlatilishi mumkin. Ertak terapiyasining terapevtik ta’siri ikki darajada sodir bo‘ladi: verbal va noverbal. Ishni og’zaki darajada boshlash tavsiya etiladi (ertakni idrok etish), og’zaki bo‘lmagan (rasm, modellashtirish) tartibda davom eting va yakuniy bosqichda og’zaki vositalar qo‘llaniladi (ertakni muhokama va munozaral qilish).

O. Burchik ertak ustida profilaktika va korreksiya yo‘nalishiga ega bo‘lgan quyidagi ish turlarini aniqlaydi, ya’ni:

1. Ertak aytib berish:

A) bir guruh bolalarga uchinchi shaxs nomidan yangi yoki taniqli ertakni aytib berish. O‘qituvchi ma’lum bir ajoyib vaziyatning ahamiyatini va uning shaxsning rivojlanishiga tarbiyaviy ta’sirini tushunib, ushbu turdagi ish paytida ularga e’tibor qaratishi mumkin. Bu bolaning shaxsiy fazilatlarini yaxshilashga yordam beradi.

B) butun guruhga ma’lum bo‘lgan ertakning guruh hikoyasi. Bunday holda, hikoyachi bitta bola emas, balki guruhdir.

Guruhning har bir a’zosi navbatma-navbat ertakning kichik bir qismini aytib beradi. Hikoya oldingi rivoyatchi hikoyaning qaysi qismini o‘z zimmasiga olishiga

qarab, erkin va o‘z-o‘zidan kichik qismlarga bo‘linadi. Ammo bu ish jarayonida o‘qituvchi bolalarning hikoyasini nazorat qiladi.

2. O‘zingizning ertagingizni yarating.

A) guruhning har bir a’zosi tomonidan individual ertak yaratish. Ushbu turdagi faoliyat metafora shaklida bolaning ichki dunyosini aks ettiradi va bilvosita shaxsiy rivojlanishga hissa qo‘shadi. Agar siz bolalarning o‘zlari qahramonlarga ism berishlarini taklif qilsangiz, bu jamoada u yoki bu o‘quvchining qanday qabul qilinishini aniqlashga yordam beradi.

B) guruh bo‘lib ertakni tuzish. Har bir bola o‘z navbatida ertak asarini o‘zi davom ettirib to‘ldiradi. Guruhni qo‘shish jarayoni guruhda kim etakchi ekanligini, kim o‘ziga e’tiborni jalb qilmoqchi, kim e’tiborsiz qolishni xohlaydi, kim o‘z qarorini o‘tkazishni istaydi va kim boshqasining fikrini hurmat qiladi. Bundan tashqari, ushbu turdagi ishga bo‘lgan munosabat guruh jamoasining qanchalik yaqinligini aniq ko‘rsatib beradi.

3. Ertak qo‘g’irchoq terapiyasi va ertaklarni dramatizatsiya qilish. Ushbu turdagi ishlar nafaqat o‘qish darslarini diversifikatsiya qilishi, balki jamoani mustahkamlashga, guruhda ijobiy hissiy muhitni shakllantirishga, o‘quvchilarning ijodiy salohiyatini rivojlantirishga va ichki muammolarni metafora shaklida hal qilishga yordam beradi.

Mashqlar davomida ertak terapiyasini samarali amalga oshirish uchun o‘quv jarayoniga moslashtirish va ularni o‘qitish paytida amalga oshirishning quyidagi tamoyillariga rioya qilish kerak:

1. Bolaning ichki dunyosini so‘zsiz qabul qilish printsipi. Bunda ertak dunyosi yaxlit va bebaho tarzda qabul qilinadi.

2. Ob’ektivlik printsipi. Bunda ertakni ko‘p qirrali qismida ko‘rib chiqiladi va o‘rganiladi. 3. Natijaga erishish printsipi.

O‘tkazilgan tahlil aniq maqsadga ega bo‘lishi kerak: xulosalarni shakllantirish, jamoani birlashtirish, ma’lum bir darsning o‘quv va o‘quv maqsadlariga erishish. Yuqoridagilarni umumlashtirib shuni ta’kidlashimiz mumkinki, so‘nggi paytlarda sog’lig’ini yo‘qatayotgan bolalar soni, ayniqsa uning ma’naviy yoki ruhiy tarkibiy qismlari ko‘paygan. Ularning oldini olish va bartaraf etishning samarali usullaridan biri ertak terapiyasidan foydalanishdir. Ushbu usul maktab yoshidagi bolalarning psixologik xavfsizligini shakllantirish mohiyatini aniqlashga va ularni bartaraf etishga, ijobiy xulq-atvor modellarini o‘zlashtirishga, salbiy his-tuyg’ularni, tashvish darajasini pasaytirishga imkon beradi. Bolaning ertak bilan muloqati uning salbiy holatlarini, xususiyatlarini, ishonchsizligini, dangasaligini va yangi narsalarni o‘rganishni istamasligini yengishga yordam beradi.

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALAR O‘YIN FAOLIYATIGA DOIR TRENING VA O‘YINLAR

Rangli hayvonlar o‘yini

Maqsad: Ranglarni, hayvonlarni tanish, diqqat va xotirani rivojlantirish.
Ishtirokchilar soni: 5–10 bola
Vaqti: 10–15 daqiqa
Bajarilishi: Tarbiyachi turli rangdagi hayvon rasmlari yoki yumshoq o‘yinchoqlarni tarqatadi. Bolalar tarbiyachining aytgan rangini yoki hayvonini topib, ko‘rsatadi.
Jihozlari: Rangli hayvon rasmlari yoki yumshoq o‘yinchoqlar
Natijasi: Bolalar ranglarni va hayvonlarni tanishni o‘rganadi, diqqatni jamlash va tezkor reaksiya rivojlanadi, ijtimoiy o‘zaro aloqalar kuchayadi.

Emotsiyalar oynasi treningi

Maqsad: Hissiy intellekt va ijtimoiy ko‘nikmalarni shakllantirish.
Ishtirokchilar soni: 5–10 bola
Vaqti: 10–12 daqiqa
Bajarilishi: Tarbiyachi turli emotsiyalar (xursand, g‘azab, hayrat) tasvirlangan kartochkalarni ko‘rsatadi. Bolalar yuz ifodalarini takrorlaydi va qaysi vaziyatda bu emotsiya paydo bo‘lishini aytadi.
Jihozlari: Emotsiya kartochkalari
Natijasi: Bolalar hissiyotlarni tanishni o‘rganadi, empatiya va hissiy tushuncha rivojlanadi, ijtimoiy muloqot qobiliyati oshadi.

Menga o‘xshash harakat o‘yini

Maqsad: Motorika, koordinatsiya va ijtimoiy o‘zaro ta’sirni rivojlantirish.
Ishtirokchilar soni: 5–12 bola
Vaqti: 8–10 daqiqa
Bajarilishi: Tarbiyachi bir harakat qiladi (qimirlaydi, sakraydi, aylanadi). Bolalar tarbiyachining harakatini takrorlaydi.
Jihozlari: Yo‘lak yoki ochiq maydon, xohish bo‘lsa musiqiy fon
Natijasi: Kichik va katta motorika rivojlanadi, imitasiya orqali o‘rganish qobiliyati oshadi, e’tibor va konsentratsiya kuchayadi.

Qaysi ovoz o‘yini

Maqsad: Eshitish qobiliyatini rivojlantirish, diqqatni oshirish.
Ishtirokchilar soni: 5–10 bola
Vaqti: 10–12 daqiqa

Bajarilishi: Tarbiyachi turli hayvon yoki predmet ovozlarini ijro etadi. Bolalar ovoz qaysi hayvon yoki predmetga tegishli ekanini topadi.
Jihozlari: Ovoz yozilgan kartochkalar, yoki tarbiyachi tomonidan ijro etilgan ovozlar
Natijasi: Eshitish va aniqlash qobiliyati oshadi, diqqatni jamlash kuchayadi, auditive xotira rivojlanadi.

Rangli yo‘l o‘yini

Maqsad: Ranglarni tanish, koordinatsiya va muvozanatni rivojlantirish.
Ishtirokchilar soni: 5–12 bola
Vaqti: 10–15 daqiqa
Bajarilishi: Xonada yoki hovlida rangli yo‘llar (karton yoki lenta) chiziladi. Bolalar berilgan rangli yo‘llar bo‘ylab yuradi, sakraydi yoki qimirlaydi.
Jihozlari: Rangli lenta yoki kartonlar
Natijasi: Ranglarni tanish qobiliyati rivojlanadi, motorika va muvozanat kuchayadi, jismoniy faollik oshadi.

“Shahar va transport” o‘yini

Maqsad: Ob’ektlarni tanish, mantiqiy fikrlash va tasniflashni rivojlantirish.
Ishtirokchilar soni: 5–10 bola
Vaqti: 10–12 daqiqa
Bajarilishi: Tarbiyachi turli transport vositalari va binolar rasmlarini ko‘rsatadi. Bolalar bu rasmlarni guruhlab joylashtiradi (masalan, transportlar va binolar).
Jihozlari: Transport va shahar ob’ektlari rasmlari, kartonlar
Natijasi: Tasniflash qobiliyati, mantiqiy fikrlash va diqqat rivojlanadi.

“Kimning ovozi?” o‘yini

Maqsad: Eshitish qobiliyati va xotira rivojlantirish.
Ishtirokchilar soni: 5–10 bola
Vaqti: 10 daqiqa
Bajarilishi: Tarbiyachi turli hayvon, transport yoki tabiat ovozlarini ijro etadi. Bolalar ovoz qaysi predmetga tegishli ekanini aytadi.
Jihozlari: Ovoz yozilgan kartochkalar yoki tarbiyachi ijrosi
Natijasi: Auditiv xotira rivojlanadi, diqqat va aniqlik oshadi.

“Rangli bloklar” o‘yini

Maqsad: Ranglarni va shakllarni tanish, qo‘l motorikasini rivojlantirish.
Ishtirokchilar soni: 5–12 bola
Vaqti: 10–15 daqiqa

Bajarilishi: Bolalar turli rangdagi bloklar yordamida berilgan shakllar yoki minoralarni quradi.
Jihozlari: Rangli bloklar yoki lego elementlari
Natijasi: Motorika, ranglarni tanish va ijodiy fikrlash rivojlanadi.

“Havo sharini o‘tkaz” o‘yini

Maqsad: Muvozanat, koordinatsiya va jismoniy faollikni rivojlantirish.
Ishtirokchilar soni: 5–10 bola
Vaqti: 8–10 daqiqa
Bajarilishi: Bolalar havo sharini havoda ushlab turish yoki belgilangan joyga yetkazishga harakat qiladi.
Jihozlari: Havo sharlar
Natijasi: Motorika, koordinatsiya va jismoniy qobiliyat oshadi.

“Rasm orqali hikoya” o‘yini

Maqsad: Til va nutqni rivojlantirish, ijodiy fikrlash.
Ishtirokchilar soni: 5–8 bola
Vaqti: 12–15 daqiqa
Bajarilishi: Tarbiyachi rasmni ko‘rsatadi, bolalar rasm bo‘yicha qisqa hikoya aytadi.
Jihozlari: Hikoya qilinadigan rasm kartochkalari
Natijasi: Nutq va lug‘at boyligi rivojlanadi, ijodiy fikrlash oshadi.

“Tabiatni kuzatish” mashqi

Maqsad: Atrof-muhitni bilish va kuzatish qobiliyatini rivojlantirish.
Ishtirokchilar soni: 5–10 bola
Vaqti: 10–15 daqiqa
Bajarilishi: Bolalar bog‘ yoki xonadagi o‘simlik, hayvonlarni kuzatadi va ular haqida gapiradi.
Jihozlari: Tabiyat elementlari, rasmlar yoki haqiqiy o‘simliklar
Natijasi: Kuzatish, mantiqiy fikrlash va til qobiliyati rivojlanadi.

GLOSSARIY

Amaliy mashg‘ulot	Bolalarning bilim va ko‘nikmalarini amalda mustahkamlash uchun o'tkaziladigan faoliyat
Analitik ko‘nikma	Muammolarni aniqlash va ularni yechish qobiliyati
Diqqat	Bolalarning ma’lumotlarga e’tiborini jamlash va konsentratsiyalash qobiliyati
Emotsional rivojlanish	Bolalarning o‘z hissiyotlarini anglash, boshqarish va ijobiy muloqot qilish qobiliyati
Eksperimental o‘rganish	Tajriba va kuzatish orqali bolalarning bilim va ko‘nikmalarini rivojlantirish usuli
Guruh mashg‘uloti	Bir guruh bolalar bilan birga o'tkaziladigan mashg‘ulot, ijtimoiy ko‘nikmalarni rivojlantirishga qaratilgan
Ijodiy o‘yin / terapiya	Bolalarning fantaziyasi, tasavvuri va ijodiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirishga qaratilgan faoliyat
Ijtimoiy ko‘nikmalar	Bolalarning guruhda muloqot qilish, hamkorlik qilish va ijtimoiy vaziyatlarga moslashish qobiliyati
Ijtimoiy o‘rganish	Bolalarning boshqalar bilan muloqot orqali ijtimoiy ko‘nikmalarni egallash jarayoni
Individual mashg‘ulot	Bolaning shaxsiy ehtiyojlariga moslashtirilgan mashg‘ulot
Interaktiv mashg‘ulot	Bolalarning faol ishtirokini talab qiladigan va muammolarni hal qilishga yo‘naltirilgan mashg‘ulot
Kognitiv rivojlanish	Tafakkur, diqqat, xotira, fikrlash va muammolarni hal qilish qobiliyatini shakllantirish jarayoni
Koordinatsiya	Bolalarning harakatlarni uyg‘unlashtirish va muvofiqlashtirish qobiliyati
Kuzatish	Bolalarning xatti-harakatlarini, faoliyat va reaktsiyalarini sistematik tarzda aniqlash
Loyiha asosidagi faoliyat	Bolalarning mustaqil yoki guruh bo‘lib amalga oshiradigan ijodiy va amaliy faoliyati
Mashg‘ulot rejalashtirish	Tarbiyachining faoliyatni oldindan belgilash va bosqichma-bosqich tashkil etishi
Musiqa terapiyasi	Musiqa va ritm orqali bolalarning emotsional, ijtimoiy va kognitiv rivojlanishini rag‘batlantirish
Motivatsiya	Bolani o‘rganishga va faoliyatga jalb qiluvchi ichki qiziqish va rag‘bat

Nutq terapiyasi	Talaffuz, so‘z boyligi va muloqot qobiliyatlarini rivojlantirishga qaratilgan mashg‘ulotlar
O‘yin	Bolalar uchun qiziqarli va faoliyatga yo‘naltirilgan faoliyat, bilim va ko‘nikmalarni shakllantirish vositasi
O‘zini baholash	Bolaning o‘z qobiliyat va natijalarini tan olish va anglash qobiliyati
O‘zini boshqarish	Bolaning his-tuyg‘ularini, harakat va qarorlarini nazorat qilish qobiliyati
Play-based learning	O‘yin orqali o‘rganish, bolalarning bilim va ko‘nikmalarini o‘yinda shakllantirish usuli
Qiziqish	Bolaning faoliyatga tabiiy yo‘nalishi va rag‘bati
Qiyinchiliklarni bartaraf etish	Bolalarning rivojlanishidagi muammolarni aniqlash va ularni yengib o‘tish jarayoni
Rolli o‘yin	Bolalarning turli vaziyatlarda turli rollarni o‘ynash orqali ijtimoiy va emotsional ko‘nikmalarini rivojlantirish usuli
Sensor-motor terapiya	Bolalarning harakat koordinatsiyasi va jismoniy rivojlanishini yaxshilashga qaratilgan mashg‘ulotlar
Sinov / Testlash	Bolalarning bilim va ko‘nikmalarini baholash usuli
Tafakkur	Muammoni hal qilish va fikrlash qobiliyati
Tarbiyachi roli	Mashg‘ulotlarni rejalashtirish, bolalarning faol ishtirokini rag‘batlantirish va individual yondashuvni ta’minlashdagi pedagogik vazifalar
Tasviriy terapiya	Ranglar, tasvirlar va grafik elementlar orqali bolalarning emotsional va kognitiv rivojlanishini qo‘llab-quvvatlash
Teamwork / Hamkorlik	Bolalarning bir-biri bilan ishlash va vazifalarni birgalikda bajarish ko‘nikmasi
Xotira	Ma’lumotlarni eslab qolish va ulardan foydalanish qobiliyati
Yaratish ko‘nikmasi	Bolalarning yangi g‘oya, shakl yoki echim ishlab chiqish qobiliyati
Ijtimoiy normalarni o‘rganish	Bolalarning guruhdagi qoidalar va tartiblarni tushunishi va ularga rioya qilishi
Sensorli rivojlanish	Bolalarning sezgi organlari va idrok qobiliyatlarini rivojlantirish jarayoni
Motivatsion rag‘bat	Bolalarning faoliyatga qiziqishini oshirishga qaratilgan ijobiy ta’sirlar

Emotsional intellekt	Bolaning hissiy holatni tushunish va boshqalar bilan muloqot qilish qobiliyati
Reja asosida o‘rganish	Maqsadli va bosqichma-bosqich tashkil etilgan o‘rganish jarayoni
Improvisatsiya o‘yini	Bolalarning ijodiy fikrlash va tezkor qaror qabul qilish qobiliyatini rivojlantirishga qaratilgan o‘yin
Ijtimoiy o‘yin	Ijtimoiy ko‘nikmalarni shakllantirishga qaratilgan o‘yin faoliyati
Kognitiv o‘yin	Tafakkur va mantiqiy fikrlashni rivojlantirishga qaratilgan o‘yin
Multi-sensor terapiya	Bir nechta sezgi tizimlarini jalb qiluvchi korreksiya mashg‘ulotlari
Nazariy mashg‘ulot	Bolalarga bilim va tushunchalarni tushuntirishga qaratilgan faoliyat
Ekspert baholash	Bolalarning rivojlanish darajasini aniqlash uchun professional kuzatish va tahlil
O‘yin mashg‘uloti	Bolalarning faol o‘rganish va ko‘nikmalarini rivojlantirish uchun o‘tkaziladigan o‘yinli mashg‘ulot
Hamkorlikdagi o‘rganish	Bolalarning birgalikda ishlash orqali bilim va ko‘nikmalarini egallash jarayoni
Individual yondashuv	Har bir bolaning xususiyatlariga moslashtirilgan o‘quv va terapiya metodikasi
Korreksiya mashg‘uloti	Bolalarning rivojlanishidagi muammolarni bartaraf etishga qaratilgan faoliyat
Multi-modal terapiya	Turli terapiya usullarini birlashtirib bolalarning rivojlanishini qo‘llab-quvvatlash usuli
Adaptiv o‘yin	Bir guruh bolalar orasida samarali muloqot qilish ko‘nikmasi
Harakat terapiyasi	Jismoniy mashqlar orqali bolalarning motorik va psixologik rivojlanishini qo‘llab-quvvatlash
Ijtimoiy hikoyalar	Bolalarga ijtimoiy vaziyatlarni tushuntirish va muomala qoidalarini o‘rgatish usuli
Imaginatsion o‘yin	Bolalarning fantaziyasini va ijodiy fikrlashini rivojlantirishga qaratilgan o‘yin
Kognitiv baholash	Bolaning tafakkur, diqqat va muammolarni hal qilish qobiliyatini aniqlash jarayoni

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

HUQUQIY-ME’YORIY HUJJATLAR

1. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi: 2023-yil 30-aprelda qabul qilingan [Elektron manba]. – URL: https://lex.uz/docs/-6445145.

2. O‘zbekiston Respublikasining Mehnat kodeksi: 2022-yil 28-oktyabr [Elektron manba]. – URL: https://lex.uz/ru/docs/-6257288.

3. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi qonuni: 2020-yil 23-sentyabr, O‘RQ-637-son [Elektron manba]. – URL: https://lex.uz/docs/- 5013007.

4. O‘zbekiston Respublikasining “Bola huquqlarining kafolatlari to‘g‘risida”gi qonuni: 2008-yil 7-yanvar, O‘RQ-139-son [Elektron manba]. – URL: https://lex.uz/docs/-1297315.

5. O‘zbekiston Respublikasining “Yoshlarga oid davlat siyosati to‘g‘risida”gi qonuni: 2016-yil 14-sentyabr, O‘RQ-406-son [Elektron manba]. – URL: https://lex.uz/docs/-3026246.

6. Maktabgacha ta’lim tizimini tubdan takomillashtirish choratadbirlari to‘g‘risida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori. 09.09.2017 y. PQ-3261-son

7. O‘zbekiston respublikasi maktabgacha ta’lim tizimini 2030- yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida - T.:2019- y.

8. Maktabgacha ta’lim tashkilotlari faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida – O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Qarori 391-sonli qarori T.:2019-y

9. “Maktabgacha ta’lim va tarbiya to‘g‘risida” O‘zbekiston Respublikasi qonuni, O‘RQ-595.

10. Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalar ta’lim-tarbiyasiga qo‘yiladigan davlat talablari. T., 2020-y

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI ASARLARI

11. Mirziyoyev Sh.M., Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak. Mamlakatimizni 2016-yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning asosiy yakunlari va 2017-yilga mo‘ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo‘nalishlariga bag‘ishlangan Vazirlar Mahkamasining kengaytirilgan majlisidagi ma’ruza, 2017-yil 14-yanvar // Sh.M.Mirziyoyev. – Toshkent; O‘zbekiston, 2017. -104b.

12. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoyevning 2020-yil 29-dekabrdagi Oliy Majlisga Murojaatnomasi (2020-yil 29-dekabr).

MAXSUS ADABIYOTLAR

13. Ahmedova Z.“Ertak terapiya” Toshkent- 2019

14. Nishanova Z.T., Alimova G.F.L., Turg‘unboyeva A.G‘., Asranboyeva M.X. “Bolalar psixologiyasi va psixodiagnostikasi” Toshkent – 2017 Ta’lim va innovatsion tadqiqotlar (2024 йил № 1) № 1-342 Education and innovative research 2024 y. № 1 Образование и инновационные исследования (2024 год № 1)

15. Бурчик О.В. Групповая сказкотерапия в личностно - ориентированном воспитании детей / О.В. Бурчик // Вестник Житомирского государственного университета имени И. Франка. – 2005 – № 25 – С. 203–205.

16. Вачков И. Сочиняем сказки (сказкотерапевтический тренинг) // Школьный психо- лог: приложение к газете «Первое сентября» / И. Вачков. 2003.- № 19.- С. 16

17. Гнездилов А.В. Авторская сказкотерапия. Дым старинного камина (сказки доктора Балу) / А. В. Гнездилов. - Санкт-Петербург: Речь, 2003. - 290 с.

18. Зинкевич-Евстигеева Т. Практикум по сказкотерапии / Т. Зинкевич-Евстигеева, Т. Грабенко. – СПб.: Питер, 2001 – 315 с.

19. Киселева М.В. Арт-терапия в работе с детьми: Руководство для детских психоло- гов, педагогов, врачей и специалистов, работающих с детьми. — СПб.: Речь, 2006 — 160 с.

20. Нартова-Бочавер С.К. Народная сказка как средство стихийной психотерапии // ХРЕСТОМАТИЯ. Сказки народов мира / Под ред. К.М. Нартова. М., Ин-т практической психологии, 1996.

Elektron resurslar

21. https://mdo.uz/

22. www. tdpu. uz

23. https://lex.uz/docs/-4646908

24. www. pedagog. uz

25. www. Ziyonet. uz

26. www. edu. uz

27. tdpu-INTRANET. Ped

28. www. mgopu.ru.

29. www.elsu.ru.